

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI
FRANSUZ TILI FONETIKASI KAFEDRASI**

**ITALYAN VA O'ZBEK TILLARIDA SIFAT YASOVCHI
QO'SHIMCHALAR TIPOLOGIYASI
mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Ilmiy rahbar:

**Bajaruvchi:
IV kurs talabasi
Xudoynazarov Ibrohim**

Bitiruv malakaviy ish
"Fransuz tili fonetikasi va grammatikasi"
kafedrasining 2011 yil
"___" ___dagi yig'ilishida
himoyaga tavsiya etilgan.

Bayonnoma raqami _____

Kafedra mudiri: Suvonova

Samarqand – 2011

MUNDARIJA

KIRISH	
I BOB. SIFAT SO'Z TURKUMI NAZARIYASI	
1.1. Sifat so'z turkumi tilshunoslar talqinida.....	
1.2. Sifat asosiy so'z turkumlaridan biri sifatida.....	
1.2.1. Italian tilida sifat so'z turkumi	
1.2.2. O'zbek tilida sifat so'z turkumi	
I bobga xulosa.....	
II BOB. ITALYAN VA O'ZBEK TILLARIDA SIFAT YASOVCHI	
QO'SHIMCHALARNING TASNIFI	
2.1. Italian tilida sifat yasovchi qo'shimchalar.....	
2.1.1. Sifat yasovchi suffiksal qo'shimchalar.....	
2.1.2. Sifat yasovchi prefiksal qo'shimchalar.....	
2.2. O'zbek tilida sifat yasovchi qo'shimchalar.....	
2.2.1. O'zbek tilida aktiv sifat yasovchi qo'shimchalar.....	
2.2.2. O'zbek tilida passiv sifat yasovchi qo'shimchalar.....	
II bobga xulosa.....	
XULOSA	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda malakali va salohiyatli kadrlar tayyorlashda chet tilini o'qitish, yoshlarda chet tilida muloqot qila olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish dolzarb va muhim vazifadir. Shunga ko'ra, bugungi kunda chet tilini o'qitishda qiyosiy tadqiqot usullaridan foydalanish katta samara bermoqda.

Binobarin, chet tillarida muloqot qilishning malaka va ko'nikmalariga ega bo'lish uchun xorijiy tilni har tomonlama chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmog'i lozim. Mana shu vazifalardan kelib chiqqan holda biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda italyan tilidagi sifat so'z turkumi va ikkala tildagi sifat yasovchi qo'shimchalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Prezidentimiz I. A. Karimovning quyidagi gaplari fikrimiz isbotidir: "O'zbek bolasiga chet tillarning ajib dunyosiga bemalol kirishi uchun imkoniyatlarini to'liq ochib berishimiz darkor. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'ranish milliy asosdagi jadallashtirilgan metodikasini tayyorlashni tezlashtirishimiz kerak"¹.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy tilshunoslikda hozirgacha masalaning bu tarzda qo'yilmaganligi tanlangan mavzuning nechog'lik muhimligini ko'rsatadi. Morfologiyada doimo otdan so'ng keladigan sifat so'z turkumiga tilshunoslar kam e'tibor berib kelmoqdalar. Ma'lumki, so'zning turli morfologik shakllari va har xil ma'no xususiyatlarini ifodalovchi, gap shakllarini hosil qilishda, ular tarkibidagi til birliklarini o'zaro aloqaga kiritishda sifat so'z turkumiga xos so'zlarning ma'no hamda tarkibiy xususiyatlarini o'rganmasdan turib, morfologiyaning boshqa muammolarini oydinlashtirish mumkin emas.

Ushbu ishimizda ona tilimiz hamda italyan tili materiallariga tayangan holda sifat so'z turkumiga xos so'zlarning ham nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq etishga harakat qildik. .

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda sifat so'z turkumi kategoriyasi kam o'rganilgan soha bo'lib, asosan bu mavzu N.Yu. Shvedova,

¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Тошкент : 1995. –Б. 55.

Ye.A.Zemskaya, A.N. Vasilyeva, R.S. Amirov, F. Sayfullina, E. Begmatov, R. Qo'ng'urov, B. O'rinboyev, U. Tursunov, Sh. Rahmatullayevlar Muxtorov J, H. Usmonov kabi tilshunos olimlarning ishlarida o'z aksini topgan. Bu muammoning italyan tilidagi yechimi bo'yicha esa Ammaniti N., De Mauro t., Pittano G.lar tadqiqot ishlari olib borgan. Bitiruv malakaviy ishda ushbu olimlar fikrlaridan kelib chiqib, ularni umumlashtirgan holda o'zbek va italyan tillaridagi bog'lovchilar qiyosiy tadqiq etildi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Italyan va o'zbek tillariga tegishli sifat so'z turkumining xususiyatlarini birma-bir tahlil qilish orqali ularni ikki tilda qiyosiy o'rganish asosida o'ziga xosligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari. Yuqorida keltirilgan maqsaddan kelib chiqib, ushbu ishda quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

- Sifat so'z turkumi tilshunoslar talqinida tutgan o'rnini tavsiflash;
- Sifat so'z turkumining morfologiyada mustaqil so'z turkumi sifatida xizmat qilishini namoyon etish;
- Italyan tilidagi sifat yasovchi qo'shimchalarning struktur – semantik xususiyatlarini ochib berish;
- O'zbek tilidagi sifat yasovchi qo'shimchalarning struktur – semantik xususiyatlarini ko'rsatib berish;
- Italyan va o'zbek tillaridagi sifat yasovchi qo'shimchalarning qiyosiy tahlil natijalarini tavsiflash.

Tadqiqot obykti va predmeti. Tilshunoslikning eng serqirra tarmoqlaridan biri hisoblangan grammatika va uning kata bo'limlaridan biri morfologiya tadqiqot obyektini tashkil etsa, undagi sifat so'z turkumiga xos so'zlarlar esa tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari. Mavzuni o'rganish jarayonida rus tilshunosligida, o'zbek va italyan tilshunosligida mazkur masalaga bag'ishlangan ilmiy kuzatishlarga tayanildi. Bunda asosan, italyan tilshunosligi bo'yicha Ammaniti N., De Mauro t., Pittano G.lar va o'zbek tilshunosligi

bo'yicha N.Yu. Shvedova, Ye.A.Zemskaya, A.N. Vasilyeva, R.S. Amirov, F. Safiullina, N. Rajabov, Sh. Shoabdurahmonov, E. Begmatov, R. Qo'ng'urov, B. O'rinboyev, H. Usmonov kabi tilshunos olimlarning qarashlariga tayangan holda ish olib boriladi.

Tadqiqot metodlari. Ishni yoritishda asosan, qiyosiy-tavsifiy hamda tadqiqot oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishda tasviriy va distributiv tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Barcha morfologik shakllarning keng ko'lamda amal qilishi ularning ko'plab grammatik stilistik ma'nolarining ro'yobga chiqishiga sabab bo'ladi va ana shu ma'nolar doirasida uslubiy chegaralanish yuz beradi. Tahlil davomida o'rni bilan o'zbek va italyan tillaridagi sifatlarning o'xshash hamda farqli tomonlari ilk bor italyan va o'zbek tillari materialida izohlandi.

Italyan tilida sifat va ularning so'z yasovchi qo'shimchalari tizimining o'rganilishi, ayniqsa, italyan va o'zbek tillaridagi sifatlar tadqiqi chet tilida muloqot ko'nikmalarini olishga yordam beradigan chet tili o'qitish sohasiga hissa qo'shildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Tadqiqot natijalari nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Nazariy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari italyan tilini o'qitishda so'z turkumlari, xususan, sifatlar kategoriyasini yaxshi o'zlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishdagi tahlil natijalari asosida nazariy, amaliy va qiyosiy grammatika fanlarini o'qitishda, qolaversa, chet tilarini o'qitish va o'rganish jarayonlarida ham foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi qo'yilgan vazifalarning ketma-ket izchilligiga asoslanib, u kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB

SIFAT SO'Z TURKUMI NAZARIYASI.

1.1. Sifat so'z turkumi tilshuoslar talqinida.

Italyan va o'zbek tillari morfologiyasida boshqa so'z turkumlari qatori sifat ham katta o'rinni egallaydi.

Sifat o'zbek tilida o'zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra mustaqil so'z turkumi sifatida ajratilgan. Sifat turkumining ko'p sohalari ustida dissertatsiyalar yoqlandi, ilmiy maqolalar yozildi. Ammo bu sohadagi ilmiy ishlarni umumlashtiruvchi yaxlit bir monografik ish yaratilgani yo'q. O'zbek tilida belgi — sifat ma'nosini ifodalovchi maxsus morfologik ko'rsatkich yo'q. Ba'zi bir so'zning ham ot, ham sifat, ham ravish vazifalarida qo'llana olishi (ba'zan ularni almashtirishlar) ko'proq ana shuning uchundir. Lekin, *-li*, *-siz* singari sifatning o'ziga xos yasovchi affikslari ham bor. Ammo bular ma'lum ma'noli sifatlarnigina yasaydi.

R. R. Sayfullayevaning yozishicha "Sifat asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi darajalanuvchi so'z sifat deyiladi: *qizil qalam*, *oq kabutar*, *yaxshi gapirmoq*.

Boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, *Gul* — *qizil* deganda turg'un (statik) belgi, *Gul qizardi* deganda esa o'zgaruvchi (dinamik) belgi namoyon bo'lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, *qizg'ish ~ qizil ~ qip-qizil*- Boshqa turkum anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo'q. Sifat gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, qisman kesim, hol vazifasida keladi".²

N. K. Dmitriyev shunday yozadi: "Qart (*qari*) tipidagi so'zni dastlab sifat deb hisoblash mumkin, chunki u predmet belgisini bildiradi; sintaktik planda esa xuddi shu so'z: a) sifat tarzida ham, b) ot tarzida ham qo'llanila oladi. Shunday qilib, qart tipidagi so'zlarni semantik xarakteristika xususiyatlariga ko'ra, shartli ravishda

² R. R. Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent, 2009, 237-bet.

sifat-ot termini bilan atasa bo'ladi".³

Shunga o'xshash fikrni A. P. Yakubinskiy ham aytgan: "Ot bilan sifat o'rtasida grammatik jihatdan dastlab hech qanday farq sezilmaydi. Har ikkala grammatik kategoriya ham ot turkumidan kelib chiqadi, ya'ni biri predmet nomini anglatadi, ikkinchisi belgi nomini anglatadi". Yoqut tilshunosi L. N. Xaritonov esa terminlar haqida quyidagilarni bayon qiladi: "Ot va sifat terminlarini "predmetlik nomi" va "sifatlik nomi" terminlari bilan almashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi".

Dastlabki tekshirish olib borgan ko'p turkologlar turkiy tillar sistemasida sifatlarning alohida so'z turkumi ekanligiga shubha bilan qaraganlar. Masalan, O. Vo'tling sifat va ot kategoriyalarini tashqi formalariga asoslanib, bir o'ringa qo'yib tekshirgan.

Darhaqiqat, ot kategoriyasidagi so'zlar ham sifat (belgi ma'nosidagi aniqlovchi) vazifasida qo'llanadi va *qanday* degan so'roqqa javob bo'ladi. Masalan, *yog'och ot, sim to'siq, shoyi ko'ylak, chit ko'rpa* kabi. Lekin bu so'zlarni ot kategoriyasidan sifat kategoriyasiga o'tdi deb hisoblamaslik lozim.

Yana shunday faktlar borki, ikki ot yonma-yon kelib uchinchi otni aniqlaydi. Masalan, *xum kalla (kalla xum) bola, anor yuz qiz, bez bet odam* va boshqalar. Bunday hodisalarda endi ikki ot qo'shilishidan bir ma'no anglatuvchi qo'shma sifat yasaladi.

O'zbek tilida ikki xil formada qo'llanib kelayotgan ot aniqlovchilar uchraydi. Masalan, *devor soat, devoriy gazeta; g'isht imorat, g'ishtin imorat; arslon bilak yigit, arslon bilakli yigit* kabilar.

O'zbek tilida affiksatsiya usuli (ayniqsa *-li* affiksi) yordamida sifat yasalishi ancha keng rivojlanib bormoqda.

Grammatika darsliklarining dastlabki nashrlarida: Masalan, "O'zbekcha til saboqligi" kitobida bu so'z turkumi "Supat" termini bilan atalib, qisqacha qoidalar va ta'riflar berilgan.

1937 yili o'rta maktablar uchun chiqarilgan grammatika darsligida esa,

³ Н. К. Дмитриев, Грамматика башкирского языка, М.—Л., 1948, стр.81.

sifatga, sifat yasovchilarga berilgan ta'rif va tahlillar qayd etilgan darslikdagiga nisbatan ancha mukammal.

1941 yilga kelib, o'zbek tili darsligida sifatlar “asliy” va “nisbiy” sifat terminlari bilan ikki guruhga ajratib beriladi. Bunday tasniflash ana'naviy ravishda darslik va qo'llanmalarda shu kungacha davom etib kelmoqda.

Mazkur malakaviy ishda, “asliy va nisbiy” sifatlar o'rnida “tub” va “yasama” sifatlar berildi. “Asliy”, “nisbiy” terminlari umuman qo'llanmadi. Masalan, *qizil, qora, shirin, achchiq, sho'x, o'jar* kabi tom (leksik) ma'nosi bilan faqat sifatlikni (belgilikni) bildiruvchi so'zlar — tub sifatlar gruxiga, affikslar yordamida boshqa so'zlardan yasalgan predmetga ega ekanlik, xossa, xususiyat va hokazo ma'nolarini ifodalovchi so'zlar esa yasama sifatlar gruhiga kiritildi.

Taxta (ko'prik), oltin (soat), jun (ro'mol) tipidagi, ya'ni hozirgi kungacha nisbiy sifatlar termini ostida o'rganilib kelinayotgan (*taxta, oltin, jun* kabi) so'zlar esa ot turkumiga kiritilishi va uning bunday xususiyatlari o'sha turkumda o'rganilishi kerak degan xulosaga kelindi.

Sifat darajalari, sifatning ma'no turlari tasniflashda va bunga oid mulohazalarda (o'zbek tili grammatika darsliklarida va turkiy tillar grammatikalarida) ma'lum darajada turliliklar mavjud. Masalan, “O'zbekcha til saboqlig'i” (1926) kitobida “Sifat siralari” sifat darajalari o'rnida: 1. Sodda sifat, 2. Cho'gishtirish sifati, 3. Oshirma sifat, 4. Ozaytirish sifati tarzida beriladi. “O'zbek tili grammatikasi”da (1941) esa, sifat darajalari, 1. Oddiy daraja, 2. Chog'ishtirma daraja, 3. Oshirma darajalarga bo'linadi.

A. N. Kononov sifat darajalarini ikki (qiyosiy daraja, orttirma daraja)ga ajratib beradi.

Boshqa turkiy tillarda, jumladan, ozarbayjon, qozoq, tatar, uyg'ur, turkman tillarida sifat darajalari 4—5 guruxda berilgan.

Mazkur malakaviy ishda biz sifat darajalarini 3 gruxga ajratdik: 1. Orttirma daraja, 2. Ozaytirma daraja, 3. Qiyosiy daraja. (Intensiv forma orttirma daraja tarkibida o'rganildi.)

Mavjud grammatika darsliklarida, qo'llanmalarda sifatlarning semantik

ma'no turlari 4—8 guruhgacha ajratib kelinadi.

Demak, shu kungacha nashr etilgan grammatika darsliklarida sifatning darajalari va semantik turlarini guruhlashtirish bobida ma'lum stabillik yo'q.

Biz, mazkur malakaviy ishda sifat darajalarini 3 guruhga (orttirma, ozaytirma, qiyosiy) ajratib berishni va sifatlarni semantik jihatdan 9 guruhga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'rdik.

Sifatlarning (morfologik va sintaktik) yasalishi masalasiga ham turlicha yondashib kelinadi. Masalan, bir turkum ishlarda, darsliklarda o'zaklar (ot o'zakdan yasalgan sifatlar, fe'l o'zakdan yasalgan sifatlar) e'tiborga olinsa, boshqa ishlarda, darsliklarda morfologik, sintaktik usullar ko'zda tutiladi. Sifat yasalishi masalasiga qaysi tomondan yondashilmasin, faktlar, fikr-mulohazalar, umumiy xulosalar bir-biriga yaqin keladi, faqat hajm jihatdan farq qilishi mumkin.

Umuman, sifatlarning yasalishi o'zbek tilida juda keng va murakkab sohadir.

Ushbu izoh etilgan sifat yasovchi affikslar, qo'shma sifatlar mavjud grammatika darsliklaridagiga qaraganda son jihatidan ham, izohlanishining kengligi jihatidan ham birmuncha farq qiladi. To'plangan materiallar sifat yasovchi affikslarning yuzga yaqin ekanligini ko'rsatdi. Bu affikslar vositasida turli so'z turkumlaridan, Masalan, otdan (*iffatli, bahosiz, tungi, serpul*), fe'ldan (*so'zagon, vaysaqi, sayratma*), taqlidiy, tasviriy so'zlardan (*jizzaki, sharaqlama*) va hokazolardan sifat yasaladi. Bulardan *-li, -siz* kabi yasovchilar faqat sifatga xos bo'lib, eng aktiv sifat yasovchilar hisoblanadi.

Sifat yasovchi affikslarni o'z tabiatlariga va turli-tuman xususiyatlariga (Masalan, sodda va qo'shma bo'lishi, faqat bir so'z turkumigagina xos bo'lib qolganligi yoki turli so'z turkumlari orasida teng qo'llana olishi, o'zakka turlicha ta'sir ko'rsatishi, qo'llanishdagi aktiv va passivligi, fonetik variantlarga egaligi, sinonimik, antonimik xususiyatlari va shu kabi turli tomonlariga) ko'ra, bir necha gruxga va gruxchalarga ajratish mumkin.

Ba'zi bir so'zlar (sifatlar) tub holda ham, affiks olgan holda ham (Masalan, *pok//pokiza, g'ijim//g'ijmaloq, bolajon//bolajonli* yoki *odamjon//odamjonli, binoyi//binoyidek* va hok.) bir ma'noni anglataverishi bilan xarakterlidir.

Sifatlarning bu kabi xususiyatlari ham hisobga olindi.

Be-, *-siz*, *no-*, *-li*, *ba-*, *-dor*, *ser-* kabi affikslar qo'llanishi jihatidan sinonimik xarakterga ega: *puldor//serpul*, *betinch//notinch//tinchsiz*, *beo'rin//noo'rin//o'rinsiz*. Lekin shunga qaramay, affikslarning qo'llanishida farqlanib, chegaralanib qolgan, bir-biri bilan o'rin almashtira olmaydiganlari ham bor: Masalan, *adab* so'zi *be-*, *-siz* bo'lishsizlik affikslarini oladi-yu, *no-* bo'lishsizlik affiksini qabul qilmaydi. *Pand* so'zi esa faqat *be-* affiksini ola oladi.

O'zak va affiks ba'zan yaxlit, ajralmas holatga kelib qoladi, ayrim hollarda esa yasalgan (yasama) so'zlarning ma'nosi o'zak ma'nosidan birmuncha uzoqlashadi yoki ma'lum darajada yangi ma'no kasb etadi. Mas., *shallaqi*, *beso'nasay*, *betavfiq*, *bejirim* va boshqalar.

Sifat yasalishiniig bunday xususiyatlarini ko'plab misollarda ko'rish mumkin. Yasovchilarning bu kabi nozik tomonlari har tomonlama o'rganilishni, maxsus tadqiqotlarni talab etadi.

Sifat yasovchilar (yasama sifatlar)ga bu ishda struktural tomondan yondashilib tahlil etildi: Mas. 1. Sodda sifatlar (tub, yasama). Bunda affiksatsiya usuli bilan yasalgan sifatlar beriladi. 2. Murakkab sifatlar. Bunda esa sintaktik usul bilan yasalgan (qo'shma, birikmali, tizma) sifatlar beriladi.

O'zaklarning qaysi so'z turkumidan ekanligi, yasalgan sifatlarning leksik-semantik xususiyatlari haqidagi gaplar shu bo'limlarning o'z ichida aytib ketiladi.

O'zbek tilida sifat turkumi juda keng. Ish jarayonida nazardan chetda qolgan sifatga oid materiallar hali ko'p bo'lishi shubhasiz, Bundan tashqari, sifatning har qaysi ma'no turi yoki semantik guruhining o'zi bir katta ilmiy ish temasi bo'lishi mumkin.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar otlashishga juda moyil. Ulardagi bu otlashish xususiyati, ayniqsa semantik rangbaranglikni va ko'chgan ma'nolarni yuzaga keltiradi.

Bulardan tashqari, rang-tus bildiruvchi sifatlarning darajalanish xususiyatlarida ham alohidalik mavjud. Ulardagi muhim tomonlardan yana biri, frazeologik iboralar, maqol-matal, idioma, qo'shiq, topishmoqlar, aforizmlar

tarkibida juda ko'p qo'llanishidadir. Masalan, M. Ismoilning "Farg'ona tong otguncha" romanida birgina qora so'zi ("Qorabuloq"dan tashqari) 163 yerda qayd etilgan. Rang-tus bildiruvchi sifatlar laqab, haqorat so'zlari, qarg'ish-koyish iboralarida va hazil-mutoyibalarda ham ko'p uchraydi.

Sifatlarning xarakterli xususiyatlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan atroflicha tahlil va tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

1.2. Sifat asosiy so'z turkumlaridan biri sifatida

1.2.1. Italyan tilida sifat so'z turkumi

Italian tilda sifat (*aggettivo*) mustaqil so'z turkumi bo'lib, otga aniqlik tushunchasini yoki uning xususiyatini ifodalab keladi. Sifat – *aggettivo*: eski lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, "*adiectivu(m)*" *aggiungere* ya'ni "qo'shimcha qilmoq" degan ma'noni anglatadi. Sifat rod va son kategoriyasida o'zgaradi, ot so'z turkumidagi so'zga xususiyat yoki aniqlik tushunchasini ifodalaydi. Aniqlovchi sifatlarga (ko'rsatuvchi olmoshlar (*-mana bu uy*), egalik olmoshlari (*mening uyim*), sonni ifodalovchi sifatlar (*ikkita uy*), noaniq sifatlar (*ayrim uylar*), so'roqni ifodalovchi sifatlar (*qaysi uy?*)).

Italian tilida sifat asosan ikkita funksiyaga ega:

1.Sifatning otga to'gridan tog'ri bog'lanishi; ushbu holat aniqlovchi sifat hisoblanadi.Mas: un film interessante (*qiziqarli film*), una ragazza bellissimo (*juda chiroyli qiz*), una persona simpaticissima (*juda yoqimtoy kishi*). un viaggio indimenticabile (*esdan chiqmaydigan sayohat*).

2. Sifatning otga ot kesim yordamida bog'lanishi; Mas: *questo idea mi sembra interessante* (*mana bu hujjat menga qiziqarlidek tuyulyapti*), *quel film e' bellissimo* (*o'sha kino juda chiroyli*).

Italian tilida sifatlar ot so'z turkumiga yoki fe'l so'z turkumiga oid so'zlarga birnecha sifat yasovchi suffiks va prefikslar qo'shilishi yordamida yasaladi⁴. Mas: *-abile* – *amare-amabil*, *mangiare-mangiabile*, *cantare-cantabile* (*sevmoq-sevimli*, *yemoq-yeyimli*, *kuylamoq-kuylab bo'ladigan*). *-ibile* – *prevedere-prevedibile*,

⁴ Bu haqda II bobda to'liqroq ma'lumot berib o'tilgan.

aprire-apribile (oldindan ko'rmoq-oldindan ko'rib bo'ladigan, ochmoq-ochib bo'ladigan). -*evole* – *mutare-mutevole o mutabile* (o'zgartirmoq -o'zgaruvchan).

Otlarga qo'shilib sifat yasovchi qo'shimchalarga quyidagilar kiradi: -*oso* - *fumo-fumoso, studio-studioso, noia-noioso* (-*tutun-tutunli, o'qish-o'qimishli, zerikish-zerikarli*). -*istico* – *artista-artistico* (*san'at-san'atkor*). -*ale* – *centro-centrale, forma-formale* (*markaz-markaziy*). -*ano* – *mondo-mondano* (*jahon-jahongir*). -*ico* “-*iko antik grek tilidan kelib chiqqan*” – *demokrazia-demokratico, politica-politico* (*demokratiya-demokratik, siyosat-siyosiy*).

Geografik sifatlarni yasovchi qo'shimchalarga quyidagilar kiradi: -*itano/-etano* – *Palermo-palermitano, (Palermo-palermolik), Napoli napoletano* (*Napoli-neapollik*). -*ese* – *Ungheria-ungherese, (Vengriya-vengriyalik), Torino-torinese* (*Turin-turinlik*) -*ino* – *Parigi-parigino* (*Parij-parijlik*), *Firenze-fiorentino* (*Florentsiya-florensiyalik*), -*ano* – *Roma-romano*(*Rim-rimlik*).

Sifatlar, sifatlovchi hamda aniqlovchilarga bo'linadi. – Sifatlovchi sifatlar otlarga qo'shilib. narsa va predmetlarning xususiyatini, belgisini ifodalaydi (*chiroyli, xunuk. yaxshi. yomon, issiq, sovuq, katta, kichik, boy, kambag'al, eski. yangi, oq, qora va xok*). – Aniqlovchi sifatlar otga aniqlik tushunchasini kiritib. uning tegishlilikini, xolatini, miqdorini. sonini ifodalaydi (*mening, sening, bu, u. ko'p, xech kim. bir, ikki. birinchi, ikkinchi va hok*).

Sifatlar rod, (jens va mujs), son – birlik va kp'plikda o'zgaruvchan yoki o'zgarmaydigan bo'ladi.

	Guruh		Birlik	ko'plik
I	mujskoy rod		- <i>o</i>	- <i>e</i>
	jenskiy rod		- <i>a</i>	- <i>i</i>
II	mujskoy va jenskiy rod		- <i>e</i>	- <i>i</i>

Ayrim sifatlar faqatgina son kategoriyasida o'zgaradi (birlik va ko'plik). lekin rod (mujs. va jens) da o'zgarmaydi, ya'ni har ikkala rodga ham bir xil qo'shimcha oladi. Masalan; Mujskoy va jenskiy rodga “*elegante*” so'zi birlik va ko'pligi bir

xil bo'adi: *elegante- eleganti- xushbichim*. Boshqalari faqatgina ko'plikda rod kategoriyasini o'zgartiradi. mujskoy rod: *entusiasta – entusiasti*; jenskiy rod: *entusiasta – entusiaste*.

O'zgarmaydigan sifatlar:

1. Kelib chiqishi ot bo'lgan rangni ifodalovchi sifatlar: Mas: *blu, rosa. viola* (ko'k, pushti rang, binafsha rang). Rangning ortib borishini ifodalovchi sifatlar: Mas: *una gonna rosso fuoco - olov rangli qizil yubka. una giacca bianco ghiaccio* (muz rangli oq pidjak (oppoq)), *una cravatta verde pisello* (no'xotday yashil galstuk).

2. Predlog+ravishdan yasalgan sifatlar: *tarbiyali (yaxshi), oddiy, qobiliyatsiz, xushmuomala*. Anti + otdan yasalgan ayrim sifatlar: Mas: *antimafia, antirughe - mafiyaga qarshi, ajinga qarshi*.

3. Sifat gapda aniqlovchi yoki ot kesim vazifasida kelishidan qat'iy nazar shaxs va sonda moslashadi: mas; *Una bella ragazza (Chiroyli qiz), Questa ragazza e' bella (Bu qiz chiroyli)*.

Sifatlar otlashib kelishi mumkin.

a) jenskiy va mujskoy roddagi sifatlar ko'plikda ishlatilib kishilar ijtimoiy qatlamini ko'rsatadi; *boylar.kambag'allar, mallasochlilar, ishsizlar* va hok.

b) Egalik olmoshi o'rnida keladigan sifatlar ko'plikda butun oila. ota-ona ma'nosida keladi: *i miei. i tuoi, i suoi (familiari. parenti. genitori) menikilar. senikilar, unikilar (qarindosh, ota-ona)*.

Mujskoy roddagi butun bir xalqni ifodalovchi sifatlar ko'plikda kelsa butun bir millat tushuniladi: *gli inglesi (inglizlar), i tedeschi (nemislar)*.

v) Mujskoy roddagi birlikni ifodalovchi sifatlar ma'lum bir millat vakili yoki tili tushuniladi: Mas: *lui parla l'inglese e il tedesco; un inglese e diverso da un francese. U (o'g'il bola) inglizcha va nemischa gapiradi; ingliz fransuzdan farq qiladi*.

Ayrim sifatlar otdan oldin kelib fonetik hamda morfologik o'zgarishlarga duch keladi:

bello / chiroyli un bel film / chiroyli kino

buono / yaxshi *buon gusto* / yaxshi did
grande / katta *grand'uomo* / katta odam
Santo /avliyo *San Francesco* / Avliyo Franchesko

Determinativ yoki indikativ sifatlar – Aggettivi determinativi o Indicativi.

Determinativ yoki indikativ sifatlar o'ni aniqlab kelib. unga egalik (*mening mashinam*), ko'rsatish (*bu mashina*), noaniqlik (*ayrim mashinalar*), so'roq (*qaysi mashina?*). miqdor (*uchta mashina*) kabi aniqlik tushunchalarini ifodalab keladi, va ularning aniqlovchi sifatlardan asosiy farqi shundadir.

Egalik sifatlari (o'zb. tilida olmoshlar) aggettivi possessivi.

Musjkoy rod -birlik ko'plik

Mio/miei – mening *nostro/i* – bizning
Tuo/tuoi – sening *vostro/i* – sizlarning
Suo/suoi – uning *loro* – ularning

Jenskiy rod- birlik ko'plik

mia – mening *nostra/e-* bizning
tua – sening *vostra/e-* sizlarning
sua – uning *loro* - ularning

Ko'rsatish sifatlari (aggettivi dimostrativi) – odam yoki predmet, vaqt yoki suhbatning ma'lum bir joydan yaqin - uzoqligi ko'rsatiladi.

Ko'rsatish sifatlariga – (*questo, codesto, quello*) *bu, u, o'sha* kiradi, ular har doim otdan oldin ishlatilib, bunday sifatlardan oldin hech qachon artikl ishlatilmaydi.

Maschile – mujskoy rod: *Questo* – *bu*, *codesto* – *bu*, *questi* – *bular*, *codesti* – *bular*, *quello, quell* - *o'sha*, *quegli, quei* - *o'shalar*.

Femminile – jenskiy rod: *Questa* – *bu*, *codesta* – *bu*, *queste* – *bular*, *codeste* – *bular*, *quella* - *o'sha*, *quelle* - *o'shalar*.

Tale - Bunday

Tale sifati *bu, o'sha* ma'nosida ishlatilgandagina ko'rsatish sifati (olmoshi) vazifasini bajaradi.Mas: *Tale comportamento mi offende. Bunday xulq-atvor mening ko'nlimga ozor yetkazadi.*

Stesso e medesimo - Bir xil va o'xshash

Stesso va medesimo sifatlari ikkita predmet orasidagi o'xshashlikni ko'rsatadi. Bunday so'zlar ko'rsatish sifatlari hisoblanadi. Mas: *Siamo dello stesso segno zodiacale* - biz bir xil burj ostidamiz. *Marco e Paolo hanno la stessa eta'* - Marko va Paolo bir xil yoshda. *Abbiamo le medesime idee* - Bizning g'oyalarimiz o'xshash.

Aggettivi indefiniti – Noaniq sifatlar.

Noaniq sifatlar otga qo'shilib miqdor va sifati ma'nosini itodalaydi.

Singolare - birlik		Plurale – ko'plik	
Maschile - Mujskoy rod	Femminile Jenskiy rod	Maschile mujskoy rod	Femminile jenskiy rod
<i>ogni - har bir</i>	<i>ogni</i>	-	-
<i>ciascuno- har bir kishi</i>	<i>ciascuna</i>	-	-
<i>qualunque - har qaysi</i>	<i>qualunque</i>	-	-
<i>qualsiasi - har qaysi</i>	<i>qualsiasi</i>	-	-
<i>qualsivoglia har qaysi</i>	<i>qualsivoglia</i>	-	-
<i>Nessuno - hech kim</i>	<i>nessuna</i>	-	-
<i>Qualche - bir qancha</i>	<i>qualche</i>	-	-
<i>alcuno - ayrim</i>	<i>alcuna</i>	<i>alcuni</i>	<i>alcune</i>
<i>taluno – ayrim</i>	<i>taluna</i>	<i>taluni</i>	<i>talune</i>
<i>certuno - ayrim</i>	<i>certuna</i>	<i>certuni</i>	<i>certune</i>
<i>Certo - shubxasiz</i>	<i>certa</i>	<i>certi</i>	<i>certe</i>
<i>tale - bunday</i>	<i>tale</i>	<i>tali</i>	<i>tali</i>
<i>poco – kam</i>	<i>poca</i>	<i>pochi</i>	<i>poche</i>
<i>alquanto - qancha</i>	<i>alquanta</i>	<i>alquanti</i>	<i>alquante</i>
<i>parecchio - juda ko'p</i>	<i>parecchia</i>	<i>parecchi</i>	<i>pareechie</i>
<i>molto - ko'p</i>	<i>molta</i>	<i>molti</i>	<i>molte</i>
<i>tanto - talaygina</i>	<i>tanta</i>	<i>tanti</i>	<i>tante</i>
<i>troppo - ko'p</i>	<i>troppa</i>	<i>troppi</i>	<i>troppe</i>

<i>altrettanto - bir xil miqdorda)</i>	<i>altrettanta</i>	<i>altrettanti</i>	<i>altrettante</i>
<i>Tutto - hamma</i>	<i>tutta</i>	<i>tutti</i>	<i>tutte</i>
<i>Altro - boshqa</i>	<i>altra</i>	<i>altri</i>	<i>Alter</i>
<i>diverso - boshqacha</i>	<i>diversa</i>	<i>diversi</i>	<i>Diverse</i>
<i>vario - turli</i>	<i>varia</i>	<i>vari</i>	<i>Varie</i>

Aggettivi interrogative - So'roq sifatlar.

So'roq sifatleri otdan anglashilgan ma'noning sifatini, xususiyatini bilish uchun xizmat qiladi.

Singolare - birlik		Plurale – ko'plik	
Maschile – mujskoy rod	Femminile jenskiy rod	Maschile mujskoy rod	Femminile jenskiy rod
<i>Che - qaysiki</i>	<i>che</i>	<i>che</i>	<i>Che</i>
<i>Quale - qaysi</i>	<i>quale</i>	<i>quali</i>	<i>quale</i>
<i>quanto - qancha</i>	<i>quanta</i>	<i>Quanti</i>	<i>quante</i>

Gradi dell'Aggettivo – Sifat darajalari

Italian tilida ham sifatlar uchta daraja orqali ifodalanadi. 1) Grado positivo (Oddiy daraja), 2) Grado comparativo (Qiyosiy daraja), 3) Grado superlativo (Ortirma daraja).

- Oddiy daraja (Grado positivo): *Arturo e' simpatico* (Arturo yoqimtoy).
- Qiyosiy daraja (Grado comparativo):

a) Maggioranza (ko'paytirma daraja); *piu'...*(aggettivo)+di/che, *Arturo e' piu simpatico di te, Arturo e' piu simpatico che bella.*

b) Minoranza (ozaytirma daraja); *meno...*(aggettivo)+di, *Paola e' meno bravo di Luca.*

c) Uguaglianza (tenglik daraja); *altrettanto* (-ga o'xshab), *tanto* (shunday), *cosi' (xuddi)...* l'aggettivo+come/quanto; *Marco e' altretanto testardo come te. Sono*

tanto stanco come te. Maria e' cosi' carina come sua madre.

- Orttirma daraja (Grado superlativo):

a) Relativo; il piu...(l'aggettivo)+di/fra/tra; *L'uomo piu' ricco di/fra tutti.*

b) Assoluto – bunda qo'shimchalar va sifat oldidan ravish so'zlar qo'yilishi -
issimo/a: *un amica carissima*, molto (juda): *sei molto carina*, tanto(ko'p): *abbiamo
tanto tempo*, veramente (haqiqatdan ham) *sono veramente stufo*.

Orttirma daraja belgining normal holatdan yuqoriligini ifodalaydi.

Noto'g'ri sifatlar:

Positivo – oddiy daraja	Comparativo–qiyosiy daraja	Superlativo – orttirma daraja
<i>buono (yaxshi)</i>	<i>Migliore (yaxshiroq)</i>	<i>ottimo (eng yaxshi)</i>
<i>cattivo (yomon)</i>	<i>Peggioro (yomonroq)</i>	<i>pessimo (eng yomon)</i>
<i>grande (katta)</i>	<i>maggioro (kattaroq)</i>	<i>massimo (eng katta)</i>
<i>piccolo (kichik)</i>	<i>Minore (kichikroq)</i>	<i>minimo (eng kichik)</i>
<i>alto (uzun)</i>	<i>superiore (uzunroq)</i>	<i>supremo (eng uzun)</i>
<i>basso (past)</i>	<i>Inferiore (pastroq)</i>	<i>inferno (eng past)</i>

Sifatning yasallishida suffiks va ravish so'zlardan tashqari ayrim old qo'shimchalar va ravish so'zlar mavjud: Ushbu ravish so'zlar : juda. ayniqsa, sezilarli darajada. haqiqatdan ham. ayni (xuddi), Mas: *Mi sento molto/ tanto/ assai/ veramente stanco.*(*Men o'zimni juda/ko'p/ juda rostdanam charchagan his qilyaman*).

1.2.2. O'zbek tilida sifat so'z turkumi

O'zbek tili morfologiyasida, boshqa so'z turkumlari qatori sifat ham katta o'rinni egallaydi. Sifat o'zbek tilida o'zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra mustaqil so'z turkumi sifatida ajratilgan. O'zbek tilida belgi — sifat ma'nosini ifodalovchi maxsus morfologik ko'rsatkich yo'q. Ba'zi bir so'zning ham ot, ham sifat, ham ravish vazifalarida qo'llana olishi (ba'zan ularni almashtirishlar) ko'proq ana shuning uchundir.

Sifat kategoriyasidagi so'zlar biror predmet, voqea-hodisa va holatning belgi-xususiyatlarini (rang-tusini, hajmini, shaklini, xarakter va xossa-xususiyatlarini, vaznini, mazasini) ifodalash uchun xizmat qiladi. Mas: *ko'k kaptar, yoqimli hid, o'jar bola, qattiq to'polon, chiroyli gul* va hok.

Demak, predmet, holat va voqea-hodisaning belgisini, xossa-xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiluvchi so'zlar sifat deb ataladi.

Sifatlar semantik jihatdan 9 turga bo'linadi.

Sifatlar gapda asosan a) aniqlovchi (sifatlovchi) b) kesim bo'lib keladi.

Otlashgan sifatlar ot turkumiga xos (ega, kesim, to'ldiruvchi, qaratqich kabi) vazifalarni ham bajarib keladi. Mas: *Yaxshi topib gapirar, yomon qopib. Bechoralarga yordam berish kerak* va boshqalar. Sifat ravish vazifasida kela oladi: *Qiziq kuladi*.

Sifat turkumining o'ziga xos morfologik, leksik xususiyat quyidagicha: Masalan sifat darajalanish xususiyatiga ega — *yumaloq-yumaloqroq-yum-yumaloq. Sariq-sarg'ish-sarg'imtil-sap-sariq* va *boshq.*

Sifat aniqlovchilar (sifatlovchilar) o'zlarining sifatlanmishlari bilan moslashmaydi.

Struktura jihatidan sifatlar sodda va murakkab bo'ladi.

1. Sodda sifatlar: a) tub sifat. Masalan, katta, kichik, yomon, oq, ko'k, bo'sh, tor va sh. k, b) yasama sifat. Masalan, kuzgi, aqlli, to'liq, bemaza, sersuv kabi.

2. Murakkab sifatlar: a) qo'shma sifat. Mas: *havorang, soddadil, xushmuomala, kechpishar* va hok. b) juft sifat. Mas: *bo'lar-bo'lmasalan, katta-katta, ommaviy-siyosiy, o'nqir-cho'nqir* kabi, v) birikmali va tizma sifat. Mas: *nafsi buzuv, esi past, to'q jigar rang, o'lardek yengil tabiat (qiz), to'q qora, qizil (duxoba)*.

Sodda sifatlar

A) Tub sifat: Tub sifatlar tom ma'nosi bilan belgi tushunchasini ifodalaydi. Belgi kishining sezgi a'zolari orqali sezilgan, fahm-idroki bilan tasavvur etilgan aniq va mavhum elementlardir. Mas: *qizil, achchiq, sovuq* va boshqalar. Ba'zi sifatlar (Mas: *yashil, egri, qizil* kabi) hozirda tub hisoblansa ham, tarixan yasama

bo'lgan.

Tub sifatlarda turli grammatik, semantik va stilistik imkoniyatlar qo'shma va juft sifatlarga qaraganda kengroq, ya'ni daraja ko'rsatkichlari ko'pincha tub sifatlarga qo'shiladi (*kichik — kichikroq, ko'k — ko'kimtir, yumaloq — yum-yumaloq, pushti — nim pushti kabi*). Juft va takroriy sifat komponentlari tub sifatlardan bo'ladi (*egri-qiyshiq, yaxshi-yomon, yolg'on-yashiq, oq-qora kabi*).

B) Yasama sifatlarni (sifat yasalishi). Sifatlar turli yo'llar bilan yasaladi.

1) Affiksasiya (morfologik) usul bilan (*tun+gi, yog'+li, ser+pul, be+aql, uyat+chang*). 2) Kompozisiya usuli bilan so'zlarni bir-biriga qo'shish, juftlashtirish, takrorlash yo'llari orqali sifat hosil qilinadi (*kul rang, lattachaynar, ikki yuzlama, kuydi-pishdi*). Bunday yasashni sintaktik usul deb ham yuritiladi.

Murakkab sifatlarni

Sifat yasashda sintaktik va sintaktik-morfologik usullar

Sifatlar morfologik (affikslar vositasida) yasashdan tashqari yana sintaktik (so'zlarning birikuvi) va sintaktik-morfologik (ya'ni so'zlarning birikuvi + affikslar) usuli bilan yasaladi.

Sintaktik va sintaktik-morfologik usulda yasalgan sifatlarni gruxiga: a) qo'shma sifatlarni, b) birikmali va tizma sifatlarni, v) juft sifatlarni kiradi.

A) Qo'shma sifat. Birdan ortiq o'zak-negizdan tashkil topgan qo'shma sifatlarni bir bosh urg'u bilan aytilib, bir belgi-xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Mas: *orombaxsh (shabboda), oq ko'ngil (yigit), tilla rang (soch)* kabi.

Qo'shma sifatlarni komponentlarining qaysi so'z turkumidan bo'lishi va ularning sintaktik jihatini ko'zda tutib, ularni morfologik va sintaktik tomondan quyidagi gruhlarga ajratib tahlil qilish mumkin:

1) Ikki tub so'zdan tarkib topadi: ot+ot, ot+sifat, sifat+ot, ravish+ot. Sintaktik jihatdan qaraganda esa bu komponentlar — sifatlovchi + sifatlanmish, aniqlovchi + aniqlanmish, belgisiz qaratqich + belgisiz qaralmish, ba'zan, ega + kesim, to'ldiruvchi+kesim tarzida bir-biriga birikadi. Qo'shma sifat holida esa bir butun ma'noni (belgi ma'nosini) anglatuvchi (sifatlovchi) vazifasini o'taydi. Misollar: *bedana qadam, xum kalla, tuya paypoq, shira kayf, kulcha yuz, anordona, jigar*

rang, sarv qomat, qo'y ko'z, qo'lbola, bodom qovoq. Ommabop, yoqavayron, alamzada, sandiqzada, mushtumzo'r, nonko'r, qiziqqon sovuqqon, uzun quloq, yakkapaykal, ochko'z, ochofat, balandparvoz, sofdil, do'ng peshana, qattiq qo'l. Ulug'sifat, shirin so'z, xom kalla, o'rta yosh, oq ko'ngil, shum taka, og'iroyoq, katta og'iz, shum oyoq. Xom semiz, qora qizil, olachipor, kamhosil, kamquvvat, kamgap, hozirjavob, tezkor.

2) Komponentlardan biri tub, ikkinchisi yasama yoki egalik affiksi olgan so'zdan bo'ladi. Masalan, ot+(-ar, -mas) sifatdosh: mehnatsevar, jonkuyar, izquvar, muzyorar, kalla-kesar, erta pishar, ishyoq. Masalan, tilbilmas.

Xuddi shu formaga yana -mon yasovchisi qo'shilib keladi: usta buzarmon, ish bilarmon.

Ot+ot+egalik aff.: *yer osti, bayram oldi, til oldi (tovushlari)* va hok, Bu tip qo'shma sifatlar rus tilidan kalka yo'li bilan olingan bo'lib, tilda yangi hodisa hisoblanadi.

Olmosh + yasama sifat: *o'zbilarmon.*

Ravish + sifatdosh: *tez oqar, tinch oqar, erta pishar, cho'rtkesar.*

O'zbek tilida komponentlaridan biri mustaqil qo'llanmaydigan va ma'no anglatmaydigan bir qator qo'shma sifatlar bor, *chunonchi: xazonrezgi, shalpanq quloq, takasaltang, kalondimog', ajabtovur, juldurvoqi, diqqi nafas, so'qqabosh, chapdast* va hok.

Ba'zi qo'shma sifatlar -li affiksi olmagan holda qo'llanishiga qaramay, -li qo'shib aytilganda ham ma'noga futur yetmaydi, shunda ham belgi ma'nosini anglataveradi. Misollar, *oq ko'ngil — oq ko'ngilli, sof dil — sof dilli, tosh bag'ir — tosh bag'irli* kabi.

Lekin *yalang oyoq, yalang bosh, xom kalla, surbet, bez bet, bad bashara* kabi (aniqlovchi-aniqlanmish konstruksiyasidagi) qo'shma sifatlar -li affiksidan butunlay xoli holda qo'llanadi.

B) Birikmali sifat. Belgi ma'nolari bir so'z (sodda sifat) orqali yoki ikki so'z (qo'shma, juft sifatlar) orqali ifodalanishi mumkin. Bulardan tashqari, belgi ma'nolari ikki yoki undan ortiq so'zli (Masalan, sifatlovchi-sifatlanmish, ega-kesim va

hokazo) birikmalar orqali ham ifodalanishi mumkin. Bunday belgi ifodalarini shartli ravishda birikmali sifatlar deyiladi.

Birikmali sifatlar tarkibida so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatiga ko'ra quyidagi gruxlarga ajratish mumkin:

1) Aniqlovchi-aniqlanmish holatidagi (atributir aloqadagi) birikmalar. Mas: *yuqori hosilli, qizil bayroqli*. Aniqlovchi-aniqlanmish holatidagi birikmali sifatlarda ko'pincha ikkinchi komponent *-li* affiksni olgan bo'ladi: *besh qavatli, to'rt xonali, ko'p xonali, uzun tolali* va hok.

2) Birikmali sifatning bir turkumi ega-kesim munosabatidagi (predikativ aloqadagi) birikmalarga teng keladi. Bular quyidagilar: *ko'ngli yumshoq, istarasi issiq, tili achchiq, gapi sovuq, qo'li egri, jahli tez, yoshi ulug', sochi uzun*.

Misollardan ko'rinadiki, bu kabi belgilar ko'proq shaxsga (kishining xarakter-xususiyatiga) xos bo'lib, birinchi komponent doim uchinchi shaxs egalik qo'shimchasini olgan holda bo'ladi, shunday formadagina u bir belgi ma'nosini ifodalaydi, birikmali sifat hisoblanadi. Birinchi komponent doim ot turkumidan, ikkinchisi deyarli sifatdan tashkil topadi. Ayrim birikmali sifatlar komponentlari-ning o'rnini almashtirib qo'llash mumkin, bunda aniqlovchi-aniqlanmishli konstruktsiyalar ega-kesim shakliga kelib qoladi: *oq ko'ngil — ko'ngli oq, tosh bag'ir — bag'ri tosh, ochiq qo'l — qo'li ochiq* va hok.

3) Jo'nalish kelishik formasidagi ot+sifat munosabatidagi birikmalar ham bor: *gapga no'noq, gapga usta, betga chopar, ko'zga yaqin, o'ziga tinch* kabilar.

V) Juft sifat. Ikki so'zning teng bog'lanishidan hosil bo'lgan, predmet, hodisa yoki holatning bir umumiy belgisini ifodalash uchun xizmat qiladigan sifatlar juft sifat deyiladi. Juft sifat komponentlarining har qaysisi mustaqil urg'u bilan aytiladi.

1) Ikkita bir formadagi so'zni juftlashtirish (takrorlash) yo'li bilan; bunday sifatlar ma'noni kuchaytirish, birdan ortiqlikni bildirish, ta'kid, modal munosabat kabi ifodalar uchun qo'llanadi. Misollar: *lo'ppi-lo'ppi paxtalar, marjon-marjon ter, mayda-mayda kartoshka, lo'nda-lo'nda gap, liq-liq tilla, baland-baland tog'lar* va hok.

Bunday usul juft sifat yasashda juda mahsuldor va imkoniyati keng usuldir. Sifat va ravish turkumidagi soʻzlarning juda koʻpini takrorlab qoʻllash yoʻli bilan juft sifat hosil qilish mumkin.

2) Qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar (bunda zid maʼnoli, boʻlishli va boʻlishsiz maʼnoli va boshqa shunga oʻxshash soʻzlar) juftlashadi. Bunday juft sifatlar tarkibi turli soʻz turkumidan (ot, feʼl, sifatlardan) boʻlishi mumkin. Bular koʻproq umumlashtirish va taʼkid maʼnolarini ifodalaydi hamda koʻchgan maʼnoda ham qoʻllanishi mumkin.

Quyidagi qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar juftlashadi: a) tub soʻzlar; *halol-harom, oʻng-ters, olis-yaqin, ogʻir-yengil, oq-qora, katta-kichik, yaqin-yiroq, yosh-qari* va boshqalar.

Baʼzi hollarda bu tipdagi juft soʻzlarda (ayniqsa jonli tilda) birinchi komponent ketidan soʻzlarni birlashtiruvchi unli tovushlar qoʻshilishi mumkin: *yoshu qari, pasti baland, kattayu kichik, oqu qora* kabi; b) komponentlar tub + yasama soʻzdan boʻladi: *maza-bemaza, uzun-qisqa, haq-nohaq, xoʻl-quruq, toʻgʻri-notoʻgʻri* va hok; v) har ikkala komponent yasama soʻz boʻladi, *kerakli-keraksiz, tanish-notanish, achchiq-chuchuk, bilinar-bilinmas, bordi-keldi, sababli-sababsiz, yetar-yetmas* va hok.

Antonim xarakteridagi juft sifatlarda birinchi komponent koʻpincha boʻlishlilik maʼnosini, ikkinchi komponent boʻlishsizlik, inkor maʼnosini ifodalab keladi. Shu sababli, zarur boʻlgan oʻrinlarda, *-siz, -be, no-* affikslari ikkinchi komponentga, *-li* birinchi komponentga qoʻshilib keladi.

3) Juft sifatlar komponentlari sinonim xarakteridagi maʼnodosh yoki yaqin maʼnoli soʻzlardan boʻladi: *och-naxor, boy-badavlat, soya-salqin, oʻydim-chuqur (oʻnqir-choʻnqir)* va hok.

4) Komponentlardan biri maʼno anglatmaydi, tilda mustaqil qoʻllanmaydi, faqat juftlashgan holdagina bir butun maʼnoga ega boʻladi: *boʻsh-bayov, chala-chulpa, chalakam-chatti, eski-tuski, egri-bugri, qora-qura, gʻadir-budir* va hok.

5) Juft sifatlarning har ikkala komponenti ham yolgʻiz holda maʼno anglatmaydi va tilda mustaqil qoʻllanmaydi. Juftlashgandagina bir butun maʼno

kasb eta oladi: *uvali-juvali, ikir-chikir, shivir-shivir, aloq-chaloq, ayqash-uyqash, aji-buji* va boshqalar.

6) Juft sifat komponentlari bir turdagi so'zlardan bo'lib, ko'pincha birinchi yasovchi yoki kelishik affikslari olgan holda bo'ladi. Qo'shimcha olgan komponent aksari yolg'iz holda biror ma'no anglatmaydi: *poyma-poy, ko'pdan-ko'p, xilma-xil, rang-barang, so'zma-so'z (tarjima), yonma-yon (qo'shni)* kabi.

-li, -siz affikslari ba'zan juft otlardan juft sifat yasashi mumkin. Bunday holda affiks ikkinchi komponentga qo'shiladi: *ona-bolali, ichkari-tashqarili, yersuvsiz, son-sanoqsiz*.

Ikkinchi komponent -mas affiksini olgan holda bo'ladi mas: *kishi bilmas, tepsa tebranmas, suv bermas, gap uqmas*.

Sifat darajalari

Predmet, holat, hodisa va ish-harakatning turli-tuman o'ziga xos aniq hamda mavhum belgilari bo'ladi. Bunday belgilar normal va shu normallikka nisbatan ortiq yoki kam, past yoki baland bo'lishi mumkin. Belgining bunday xususiyatlari sifatning daraja formalari yordamida ifodalanadi.

Sifat darajalari, daraja yasovchi formalarning ma'nolari turkiy tillar grammatikalarida turlicha klassifikasiya qilinadi. Masalan, o'zbek tili grammatikasi⁵ va qozoq tili grammatikasida⁶ sifat darajalarining to'rt turi ko'rsatilsa, qoraqalpoq tili grammatikasida⁷ besh turi, ozarbayjon tili grammatikasida esa uch turi ko'rsatiladi. Shu singari, -raq, -roq daraja affiksi o'zbek va qozoq tili grammatikalarida "qiyosiy" daraja ko'rsatkichi sifatida o'rganilsa, qoraqalpoq tili grammatikasida "kuchaytirma" daraja ko'rsatkichi sifatida, ozarbayjon tili grammatikasida "azaltma" daraja ko'rsatkichi tarzida o'rganiladi.

Shu jihatdan, prof. N. K. Dmitriyevning "Boshqird tilida (shuningdek barcha turkiy tillarda) qiyosiy daraja muayyan bir sxemaga uyushib yetmagan"⁸, degan

⁵ Хозирги замон ўзбек тили, Тошкент, 1957, 345-бет.

⁶ Қазіргі қазақ тілі, Алматы, 1954, 252-бет.

⁷ Н. А. Баскаков, Каракалпакский язык, II, М., 1962, стр. 211.

⁸ Н. К. Дмитриев, Грамматика башкирского языка, М.—Л., 1943, стр. 82—83.

fikriga qo'shilish mumkin.

Sifat darajalari uch turga bo'linadi: "Orttirma daraja" belgining ortiqligini ifoda etish uchun, "ozaytirma daraja" belgining kamlik darajasini ifoda etish uchun qo'llanadi. "Qiyosiy daraja" belgining ortiqkamligi turli chog'ishtirish usullari vositasida aniqlanadi.

Orttirma daraja

Bu daraja orqali predmet, holat, ish-harakatga oid belgi-xususiyatlarning ortiqlik ma'nolari, ya'ni belgining normal holatdan yuqoriligi, balandligi ifodalanadi. Belgi darajasining ortiqligini ko'rsatishda to'rt usul qo'llanadi: morfologik (affiksasiya) usuli, leksik usul, leksik-semantik usul va fonetik usul.

Morfologik usul. Intensiv forma. Belgining ortiqlik darajasini ifodalashda qo'llanuvchi inteneiv forma biror predmet belgi-xususiyatini boshqa predmetdagi shunday belgi-xususiyati bilan qiyos etilmagan holda ortiqligini ifodalashga xizmat etadi. Bu turli ko'rinishga ega:

a) so'zning birinchi ochiq bo'g'ini ajratilib unga keyingi bo'g'indagi birinchi undosh qo'shiladi-da, yopiq bo'g'in hosilqilinadi va ketidan so'zning to'liq formasi qo'shib aytiladi: *dum-dumaloq, pak-pakana, yap-yapaloq, but-butun*;

b) so'zning avvalgi ikki tovushi (ba'zan bu bir bo'g'inga to'g'ri keladi) ajratilib, unga *p, m, s* tovushlari qo'shiladi-da yopiq bo'g'in hosil qilinadi va ketidan asl o'zak qo'shib aytiladi: *kap-katta, sap-sariq, qip-qizil, sip-silliq, qop-qorong'i, yam-yashil*.

Bir bo'g'inli sifatlarda intensiv forma quyidagicha yasaladi: o'zak oxiridagi undosh tovush, masalan, *m* yoki *p* tovushiga aylantirilib, yangi bo'gin hosil qilinadi va bu bo'g'inga asl o'zak yana tirkab aytiladi: *ko'k — ko' -m -ko'k (ko'm-ko'k)*, *bo'sh — bo' -m -bo'sh (bo'm-bo'sh)* kabilar. Oq so'zida esa o tovushi ketidan ikki *pp* tovushi orttiriladi, so'ng yana asl o'zak tirkab aytiladi: *oq — o-pp-oq (oppoq)*;

v) so'z oldidan takrorlanuvchi qolip bo'g'in ikki (*yopiq, ochiq*) bo'g'indan iborat bo'ladi, ya'ni ajratib olingan ikki tovushga *p* tovushini qo'shish orqali yopiq bo'g'in hosil qilinadi va unga *-pa* yasama bo'g'in qo'shiladi, Mas: *to'ppa to'g'ri*,

soppa-sog', oppa-oston, tuppa-tuzuk, teppa-teng.

Ozaytirma daraja

Bunda belgi ma'nosining normal darajaga yetmaganligi, normadan pastligi turli formalarda ifoda etiladi.

Ozaytirma daraja ko'proq rang-tus belgilariga xos, ayniqsa ozaytiruvchi affikslar rang bildiruvchi sifatlar bilan bog'liq.

Affiksasiya: *-i sh, -g' i sh (qizg'ish, sarg'ishk, ko'kish, okish va hok.).*

-mtir, -imtir (qoramtir, ko'kimtir, qizg'imtir, oqimtir, sarg'imtir).

-g'ilt (qizg'ilt, sarg'ilt).

Yuqorida keltirilgan affikslar asosan rang bildiruvchi sifatlarga qo'shilib kamlik ma'nosini va shu bilan birga, rang ottenkasi ma'nosini beradi.

-roq affiksi ham qiyosiy daraja elementi bo'lishi bilan birga, sifatlarda ozaytirma daraja hosil qilishda qo'llanadi (*tayinsizroq, eskiroq*).

Leksik vositalar: *yarim, nim, och, xiyol, xiyla, chizmi, sal, aytarli, uncha, unchalik eMasalan, u qadar... emas va boshq.*

Qiyosiy daraja

Sifat belgi ifodalarida qiyoslash darajasi ham katta o'rinni egallaydi. Bu daraja orqali belgining ortiq yo kamligi, yuqori yoki pastligi qiyoslash yo'li orqali aniqlanadi. Ya'ni bunda predmetlarning o'zi yoxud ularning belgilari bir-biriga qiyoslanadi. Mas: *Uzum o'rikdan shirinroq.*

Qiyosiy daraja formasini yasovchi eng muhim vositalaridan biri *-roq* affiksidir. Lekin belgi anglatuvchi so'zga faqat *-roq* affiksini qo'shish bilan chog'ishtirish (qiyosiy daraja) hosil bo'lavermaydi. Bu daraja ma'nosi kontekstdagina reallashadi. Qiyosiy daraja uchun quyidagi tartibda tuzilgan gaplarni keltirish mumkin:

Ga + qaraganda, nisbatan = roq

Uyga qaraganda ayvon yorug'roq, dengizga nisbatan ko'l kichikroq.

Dan + ko'ra, ham = roq

Shahardan ko'ra dala salqinroq.

Qiyos odatda ikki predmet (hodisa, voqea, holat) ishtirokida yuzaga keladi.

Ikkinchi obyektga (predmet, hodisaga) qiyos qilinmagan holda *-roq* affiksli elementning gapda qo'llanishi qiyosiy darajadan ko'ra orttirma darajaga yaqinroq bo'ladi: *qimmatroq kostyum, arzonroq kitob*.

-roq affiksining muayyan darajadan ortiqlikni yoki qiyomiga yetmaganlikni⁹ anglatishi ko'proq kontekstga, keyin esa, *-roq* ning qaysi ma'noda kelishiga, chog'ishtirish vositalariga, subyektning modal munosabatiga ham bog'liq. Mas: — *Ahmadning bo'yi baland.— Yo'q, Valining bo'yi undan ham balandroq.*

Qiyoslash vositalari sifatida eng, yanada so'zlari ham qo'llanadi. Bu vositalar qo'llanganda kontekst qiyosiy xarakterga ega bo'lishi shart. Mas: *Mevalar ichida eng yaxshisi uzumdur. Bugungi shamol kechagiga qaraganda yanada kuchliroq.*

Bu misoldagi qiyoslash belgining ortiqligini ifodalashga qaratilgan. Shuningdek, *bir-biridan, birdan-bir, kundan-kun, yildan-yil, oydan-oy* kabi takroriy so'zlar qiyoslash vositalari sifatida xizmat qiladi va bular vositasida qilingan qiyoslarda ham belgi ma'nosida ortiqlik ifodalanadi. Qiyoslashda — *battar, beshbattar* kabi elementlar ham qo'llanadi:

Sifatning ma'no turlari

Sifatlar semantik ma'nosi jihatidan asosan 9 turga ajraladi:

1. Xarakter-xususiyat, xossa va qimmat bildiruvchi sifatlar ayniqsa inson xarakter-xususiyatini ifodalashda ko'p qo'llanadi. Masalan: *yoqimtoy, badjahl, muloyim, ziyrak, mahmadona, dilkash, yaxshi, yomon..*

2. Holat bildiruvchi sifatlar. Predmet, hodisa, inson va hayvonga xos holat yoki vaziyat turli sifatlar orqali ifodalanadi: *go'zal, ko'hlik, chiroyli, suluv, latif, qomatdor.*

3. Rang-tus bildiruvchi sifatlar. Predmetning belgi alomatlaridan biri rang-tusdir. Bir turkum sifatlar predmetning ana shu belgisini ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan, *kul rang toshlar,*

4. Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar. Bunday sifatlar predmetning turli ko'rinishlarini, shakl va forma belgilarini ifodalash uchun qo'llanadi: *dumaloq, yassi, uzun, uzunchoq, yapaloq* kabilar.

⁹ 3. М а т р у ф о в, Узбек тилида сифатнинг чоғиштирма даражаси, Тошкент, 1949, 135-бет.

Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar bilan holat bildiruvchi sifatlar ba'zan mos kelishi mumkin: *semiz, pachoq, ozg'in*.

5. Hajm-o'lchov-masofa bildiruvchi sifatlar.

Bunday sifatlar predmetning hajmi, o'lchovi, miqdori kabi aniq va navhun belgilarini ifoda etadi. Hajm bildiruvchi sifatlar ham ko'p jihatdan holat va shakl bildiruvchi sifatlarga o'xshashdir. Mas: *keng, tor, uzun, chuqur, chog', yirik, kalta, mayda, yaqin*, so'zlari shular jumlasidandir.

6. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar. Bu tur sifatlar predmetga xos xususiyatlardan biri bo'lgan maza-ta'mni ifodalashga xizmat etadi: Maza-ta'm ifodalovchi sifatlar boshqa tur sifatlarga nisbatan kam sonni tashkil etadi: *Shirin, totli, mazali, achchiq, bemaza, nordon*.

7. Hid bildiruvchi sifatlar predmetning hidini ifodalash uchun xizmat etadi. Hid bildiruvchi sifatlar tilning lug'at boyligida juda kam sonni tashkil etadi. Shuning uchun ham bunday belgilarni ifodalashda ko'proq predmet nomlaridan foydalaniladi. Ya'ni biror hid tarqatuvchi predmet nomiga "hidli" so'zini qo'shish orqali qo'shma sifatlar hosil qilinadi. Mas: *xushbo'y, qo'lansa, ifor, muattar kabilar*.

8. Vazn-og'irlik bildiruvchi sifatlar. Bunday sifatlar og'ir yoki yengillik belgisini ifodalaydi: *vazmin, yengil, og'ir* kabi. Predmetning bunday belgilari uchun ham otlardan yoki qiyos ma'nosini anglatuvchi sifatlardan foydalaniladi: *zil, zilday, qush, qushdek, pardek, zambildek, zil-zambildek* kabilar

9. O'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar. Bir qator sifatlar o'rin va paytga munosabat bildirib keladi. Mas: *tonggi, kuzgi, kechki, keyingi, avvalgi, qishki, yozgi, ertangi, ilk, uydagi, yerdagi* kabilar. Bu turkumga taalluqli sifatlar ko'pincha ot turkumidagi so'zlardan *-gi, -ki, -dagi* yasovchilari vositasida hosil qilinadi.

I bobga xulosa

Biz ushbu bobga xulosa tariqasida quyidagilarni ta'kidlash lozim deb hisoblaymiz:

1. Italyan tilida sifat rod va son kategoriyasida o'zgaradi, ot so'z turkumidagi

so'zga xususiyat yoki aniqlik tushunchasini ifodalaydi.

2. Aniqlovchi sifatlarga ko'rsatuvchi olmoshlar, egalik olmoshlari, sonni ifodalovchi sifatlar, noaniq sifatlar, so'roqni ifodalovchi sifatlar kiradi.

3. Italian tilida sifat asosan ikkita funksiyaga ega: 1. Sifatning otga to'gridan tog'ri bog'lanishi; ushbu holat aniqlovchi sifat hisoblanadi. Mas: *un film interessante (qiziqarli film), una ragazza bellissimo (juda chiroyli qiz), una persona simpaticissima (juda yoqimtoy kishi), un viaggio indimenticabile (esdan chiqmaydigan sayohat)*. 2. Sifatning otga ot kesim yordamida bog'lanishi; Mas: *questo idea mi sembra interessante (mana bu hujjat menga qiziqarlilikdek tuyulyapti), quel film e' bellissimo (o'sha kino juda chiroyli)*.

4. O'zbek tilida sifat aniqlovchilar (sifatlovchilar) o'zlarining sifatlanmishlari bilan moslashmaydi.

5. Struktura jihatidan sifatlar sodda va murakkab bo'ladi. 1. Sodda sifatlar: a) tub sifat. Mas: *katta, kichik, yomon, oq, ko'k, bo'sh, tor* va sh. k, b) yasama sifat. Mas: *kuzgi, aqlli, to'liq, bemaza, sersuv* kabi. 2. Murakkab sifatlar: a) qo'shma sifat. Mas: *havorang, soddadil, xushmuomala, kechpishar* va hok. b) juft sifat. Mas: *bo'lar-bo'lmas, katta-katta, ommaviy-siyosiy, o'nqir-cho'nqir* kabi, v) birikmali va tizma sifat. Mas: *nafsi buzuk, esi past, to'q jigar rang, o'lardek yengil tabiat (qiz), to'q qora, qizil (duxoba)*.

6. Sifatlar semantik ma'nosi jihatidan asosan 9 turga ajraladi: 1. Xarakter-xususiyat, xossa va qimmat bildiruvchi sifatlar; 2. Holat bildiruvchi sifatlar; 3. Rang-tus bildiruvchi sifatlar. 4. Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar. 5. Hajm-o'lchov- masofa bildiruvchi sifatlar. 6. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar. 7. Hid bildiruvchi sifatlar. 8. Vazn-og'irlik bildiruvchi sifatlar. 9. O'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar.

II BOB

SIFAT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING TASNIFI

2.1. Italian tilida sifat yasovchi qo'shimchalar.

Italian tilida ham sifatlar ot so'z turkumiga yoki fe'l so'z turkumiga oid so'zlarga birnechta sifat yasovchi suffiks va prefikslar qo'shilishi yordamida yasaladi. Otlarga qo'shilib sifat yasovchi qo'shimchalarga quyidagilar kiradi deb: -*ATO*, -*ACEO*, -*ALE*, -*ALE*, -*UALE*, -*ANEO*, -*ARE*, -*ARIO*, -*ESCO*, -*EVOLE*, -*IALE*, -*ICO*, -*IORO*, -*IGNO*, -*ILE*, -*INO*, -*ISTICO*, -*IVO*, -*IZIO*, -*OSO*, *UALE*, -*UTO* kabi suffikslarni sanab o'tish mumkin.

Ot, sifat, fellardan foydalangan holda so'z yasaydigan prefikslar deb: *BI-*, *CONTRA-*, *CONTRO-*, *ANTI-*, *DI-*, *DIS-*, *EMI*, *FUORI-*, *INTER*, *PRO*, *SUPER*, *SEMI-* kabi prefikslarni kiritishimiz mumkin.

Geografik sifatlarni yasovchi qo'shimchalarga quyidagilar kiradi: -*itano/-etano* – *Palermo-palermitano*, (*Palermo-palermolik*), *Napoli napoletano* (*Napoli-neapollik*). -*ese* – *Ungheria-ungherese*, (*Vengriya-vengriyalik*), *Torino-torinese* (*Turin-turinlik*) -*ino* – *Parigi-parigino* (*Parij-parijlik*), *Firenze-fiorentino* (*Florentsiya-florentsiyalik*), -*ano* – *Roma-romano*(*Rim-rimlik*).

2.1.1. Sifat yasovchi suffiksal qo'shimchalar

Otdan yaslgan sifat. Ot-Sifat.

-**ATO** sifat yasovchi suffiksi otlardan yasalgan sifatlardagi suffiks ayniqsa xarakterlarini, o'zakning belgilarini ko'rsatdi (*velluto* – *baxmaldek yumshoq*, *fortunate* – *juda omadli*) –*ato* asosi feldan bo'lib sifatni ifodalaydi (*alcolizzato* - *spirtli ichimlikga bog'liq bo'lgan*) bundan tashqari u “ta'minot” ma'nosiga ham ega.(*finestrato* – *derazani ta'minlaydigan*, *titolato* – *taniqli sarlavhaga ega bo'lgan*).

-**ACEO** bu suffiks sifat, shakl, aspect, bog'liqlik, o'xshashliklarni ko'rsatadigan sifatlarni yasash uchun qo'llaniladi (*cartaceo* - *kartadan yasalgan*, *erbaceo* - *o'tdan bo'lgan, maysa hidi keladigan*). Bu suffikslarning markaziy vazifasi darajali sifatlarning ko'rilishidan iborat. Bu “aspektga ega bo'lgan” ma'no bilan qo'llaniladi. Misol uchun: *careaceo*-“*charmdek qattiq*” degan ma'noni

anglatdi. Qushlar nomining bo'limida ulaning tarkibining tarkibi bilan bo'ladi. (*gallinaceo - tovuqlar, xo'rozlarning oilasiga zos bo'lgan qush*).

-**ALE**.-**IALE**, -**UALE**, suffikslari otdan yasalgan sifatlarning qurulishi uchun ishlatiladi (*collegiale - kollejga ta'luqli yoki kollej o'quvchisi, commerciale -savdo sotiqqa bog'liq yoki biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs*). -**ALE** xuddi -**ZIONE** suffiksidek yasaladi (*gravitazionale-og'irlikka bog'liq*), **URA** (*procedurale-proceduraga bog'liq*) **ORE** (*elettorale – elettore - eleggere – ovoz bermoq*) – **MENTO** (*rinascimentale – rinascimento-ga bog'liq – rinascita – uyg'onosh,qayta tug'ilish*).

-**ORIO** (*territoriale – territoria-ga bog'liq*) -**IALE** varianti –**ORE** suffiksi bilan yasalgan so'zdan (*equatoriale - equatore-ga bog'liq*) va (ts) bilan tugaydiganlardan iborat bo'ladi (*razziale - razza*), -**ENZA** (*residenziale - rezidenzaga bog'liq*) –**UALE** . Varianti (ss) bilan tugagan o'zaklar bilan bog'lanadi (*sessuale - sesso (jins) bilan bog'liq*), (s) va (t) undoshlaridan keyin (*sensuale - senso*) (tt) (*intellettuale - contratto so'ziga bogliq*).Ba'zi xollarda sifatning qurulishi suffikslarning joyi almashgani bilan bog'liq bo'ladi : *federazione – federale: inaugurazione – inaugurale*.

-**ANEO**. Bu suffiks otdan yasalgan sifatlarni qurilishi uchun ishlatiladi (*cutaneo- cute – pelle (teri); coetaneo – bir xil yoshda – so'zidan olingan*)

-**ARE** .Bu suffiks bog'liqni ko'rsatuvchi sifatlarni ko'rish uchun ishlatiladi (*esemplare – che serve da esempio; salutare – che e' positive per la salute*) e ot yasalishi ham mumkin xuddi *circolare-dek* (offis, firmaga taluqli bo'lgan axborotlardan iborat document) *parlamentare* (Parlamentda ishlaydigan shaxs),-mento suffiksi bilan ham yasaladi,masalan; *fallimentare – fallimento – fallire* .

-**ARIO**. Bu suffiks o'zak bilan bog'liq bo'lgan va otdan sifat yasash uchun qo'llaniladi (*ferroviario – ferrovie, finanziario – finanza, universitario – universita, ba'zan universitetda o'qiydigan talaba ham bo'lishi mumkin*).

-**ESCO**.Bu suffiks otdan sifat yasash uchun qo'llaniladi.(*poliziesco – polizio*)o'xshashlikni

ko'rsatadi (*romanzesco – romanzoga o'xshash, animalesco – animale (hayvonga*

o'xshash), negativ ma'noga ega bo'lgan otlarga qo'shiladi (*furbesco* – *furbo*, *ladresco* – *tipico di ladro*). Aslning nomidan yasalgan sifatlarda bo'ladi, uning obektiv qiymatga ega. (*ottocentesco* – *dell'Ottocento*).

-EVOLE. Bu suffiks otdan sifat yasash uchun ishlatilib, faol ma'noga ega (*piacevole* – *piacere*, *favorevole* – *favore*) yoki passivda (*lodevole* – *che deve essere lodato*), o'zakdagi bo'yoqdorlikni ko'rsatish uchun ham (*amichevole* – *che si conforto da amico*).

-IALE. O'zak bilan bog'liq otdan sifat yasash uchun qo'llaniladi (*collegiale* – *kollejga tegishli* yoki *kollejdagi talaba*, *commerciale* – *savdoga oid* yoki *firmada savdo bilan shug'ullanuvchi*, *residenziale* – *qarorgohda turgan*).

-ICO. Umumiy bog'liqligini ko'rsatuvchi otlarni yasash uchun qo'llaniladigan sifat (*bellico* – *della guerra*, *sferico* – *con la forma di una sfera*, *storico* – *relative alla storia*); -ico –ia suffiksiga ham bog'liq. masalan: *psicologia* – *psicologico*; *filosofia* – *filosofico*; -ismo bilan, *automatismo* – *automatico*; -atico varianti –ma bilan tugallanuvchi grekchadan olingan so'zlar bilan ishlatiladi: *drama* – *drammatico*, *problema* – *problematico*. -ista suffiksi bilan ham oloqaga kirishadi (kasbning, faoliyatning nomlari), *dentistico* – *del dentista*, *specialistica*. Nihoyat, tasirli sifatlarni yasash mumkin (*simpatico* – *che ispira simpatia*) ximiyada organik kislotalarni ko'rsatishda (*acido acetico*, *buttizzico ecc*) anorganik kimyoda yuqori birikmalarini ko'rsatadi (*ferrico*, *solforico*, *ferroso*, *solforoso* – *kichik qiymatda*) yoki xarakteriga egaligini ko'rsatadi (*alcolico* – *che contiene alcol*, *cortisonico* – *che e a base di cortisone*).

-IORO. Asosi otdan iborat bo'lgan ot va sifatlarni yasash uchun qo'llaniladigan suffiks. Bu o'zakdan ot bog'liqligini ko'rsatadi (*costiero* – *della costa*, *mattienero* – *relativo al mattino*, *prigionero* – *che sta in prigione*).

-IGNO. O'zak bilan bog'liqlikni ifodalovchi sifatlarni yasash uchun qo'llaniladigan suffiks (*benigno* – *che fa bene*, *maligno* – *che fa male*, *sanguigno* – *del sangue*) yoki o'xshashlik va darajani ko'rsatish mumkin (*asprigno* – *quasi aspro*).

-ILE. O'zak otdan iborat bo'lgan sifatni yasash uchun qo'llaniladigan

suffiksi (*giovanile-relativo al giovani e alla gioventu, femminile – relativo alle femmine, minorile – relativo ai relativo ai minori*) yoki o'zagi feldan iborat ham bo'lishi mumkin (bunda o'zak Participio passato dan iborat bo'lib, majxul nisbat ma'nosida keladi. *portatile – che puo essere portato* yoki aktiv nisbatni ifodalash uchun ham qo'llaniladi, *volatile che puo volare*).

-INO. Bu suffiks bog'liqlik, o'xshashlik, materiani va ranglarni ko'rsatuvchi otni sifatni yasash uchun qo'llaniladi (*uarino – del mare, cristallino – come il cristallo, paglierino – del colore della paglia*).

-ISTICO. Bu suffiks *-ismo* suffiksli otli o'zakdan yasaliish (*egoisto – relativo all, egoismo*) va shaxs yasovchi suffiks *-ista* (*dentistica – relativo al dentista*) mumkin *-istiko* sifat yasovchi suffiks *-all* bilan birgalikda yasalgan holda bo'ladi. Maslan *-nazionalistico*. Ot yasovchi qo'shimcha *-ione* bilan ham bog'lanib keladi *-impressionistico*. Umuman olganda, bu suffiks sanat (*jazzistico – del jazz, futuristico – relativo al futuro*) siyosiy va falsafiy daraja (*idialistico – che ha ideale – fellarga ega bo'lgan, umanistico – umane ya'ni inson bilan bog'liq fan*), iqtisod (*monopolistico – relativo al monopolio*) mendensiyalariga ega.

-IVO. Aynanlik, bog'liqlik kabi ma'nolarni ifodalagan o'zagi otdan iborat sifatlarni yasash uchun ishlatiladi (*boschivo – del bosco*). Ba'zan ot yasovchi *-ione* qo'shimchasi *-ivo* qo'shimchasi orqali sifat yasashga asos bo'ladi: *nutritivo/ nutrizione/ nutrizionale, decesimo/ decesione/ decesionale*.

-IZIO. O'zagi ot bo'lgan sifat va otlarni yasash uchun ishlatiladigan suffiksdir. O'zakli otlar ayniqsa mamuriyat, siyosat, cherkov doirasidagi so'zlardan (*cordinalizio – del cordinale, impiegatizio – relativo dell'essere impiegato*) yoki tibbiyot sohasidan ham (*escrimentizio – degli escrimenti*) suvning turlarida (*sorgentizio – della sorgente – buloqli; torrentizio – del torrente*) bundan tashqari boshqa sohalardan ham kelib chiqqan (*credetizio – relativo al credito, cementizio – relativo al cemento, spozalizio – azione di sposarsi*).

-OSO. Bu qo'shimcha otdan salmoqni ko'rsatuvchi sifatlarni yasash uchun (*gommoso – di gomma, yoki la gomma cremoso – della consistenza della crema*) yoki *to'la* qobiliyatli, *zaxira* kabi ma'nolarni berish uchun qo'llaniladi (*amorosa –*

sevgiga to'la; corragioso – pieno di coraggio, pauroso – che ha paura, che fa paura, tormentoso – che procura tormento).

-UALE. Bu qo'shimcha o'zakka bog'langan otdan sifat yasash uchun qollaniladi. (*annuale – che ha la durata di un anno*).

-UTO . Tabiat va narsa yoki insonning xarakterli formasini ko'satuvchi sifatlarni yasash uchun qo'llaniladi (*barbuto – con la barba, panciuto – con la pancia*). Ot, sifat, fellardan foydalangan holda so'z yasaydigan prefiks.

2.1.2. Sifat yasovchi prefiksal qo'shimchalar

BI- Bu prefiks “ikki, ikki marta” degan ma'noni anglatuvchi sifat va otlarni yasaydi. (*Bidimensionale – che ha due dimensioni, bisettimanale – giornale – che esce ogni due settimane, bilingue – che ha due lingue madre*).

CONTRA- Bu qo'shimcha “qarshi, teskari” manolarini anglatadigan sifat va otlar yasash uchun qo'llaniladi. Qo'shimcha qo'shiladigan so'z boshidagi undoshlar ikkilanadi. (*contrabbando – produzione commercio che va contro la legge, contrapporre mettere contro, contrappeso – peso usato per bilanciare un altro peso*).

CONTRO- Bu prefiks teskari ma'noni anglatuvchi ot, fe'l va sifatlarni yasash uchun qo'llaniladi (*contrattacco – dushman hujumiga qarshi hujum*), qarshi holat yoki yo'nalishda (*controtrattare – confutare*); quvvatdan kelib chiqqan teskari ma'noni anglatishda (*controfigura – biror filmdagi xavfli saxnadagi qaxramonni ijro etuvchi shaxs, controprova – aralashmani teskari holda tekshirish*)

ANTI- Qarshi, teskari kabi ma'nolarni ifodalaydigan sifat, fe'l, otlarni yasash uchun ishlatiladi (*antiatomoco – che si oppone contrasta l'energia atomica, antif feudale – contrario al feudalesimo, anticongelante – che impedisce il congelamento*).

DI- Bir xil ma'nolarga ega bo'lgan sifat va otlardan fe'l yasaladigan prefiks. Bu qo'shimcha pastga harakatni (*digradare – pasaymoq*), cho'zmoqni (*dirottare – portare fuori rotta*), o'zak qiymatini belgilash uchun (*dimagrire –*

ozmoq) yoki negativ ma'noni berish uchun (*disperare – non avere speranza*).

DIS- Ajratish, uzoqlashish ma'nolarini ifodalovchi sifat, ot va fe'llarni yasashga qo'llaniladi (*disgiungere – separare, disseminare – sparpagliare*). Bundan tashqari yetishmovchilik (*disumano – senza umanità, disabitato – non abitato*), inkor (*disobbedire – non obbedire, disequilibri – in stabilità*), teskari (*disseppellire- togliere dalla sepoltura*).

EMI- O'rta, ichra ma'nolarini berib, asosan tibbiyot sohasida ishlatiladigan so'zlarning old qismiga qo'shiladi (*emisfero – meta della sfera pianeta, emiparesi – paralisi di meta del corpo*).

FUORI- Tashqari, uzoq ma'nolarni ifodalovchi fellarni yasash uchun qo'llaniladigan prefiks (*fuoriuscire – uscire fuori da un recipiente*), yana "istisno, umumiy bo'lmagan, xato" kabi konseptlarni ifodalovchi terminlarni yasaydi (*fuoriclasse – campione tanto bravo da non poter essere inserito nelle classi normali, fuoriprogramma – evento straordinario non programmato*).

INTER- Bu prefiks ikkita narsaning o'rtasini anglatuvchi ot, fe'l, sifat yasash uchun qo'llaniladi (*interdentale – tishlar orasi, interporre – ikkita narsaning orasiga qo'ymoq*), yana birlashma yoki birlik (*internazionake – tra le nazioni, interbancario – tra banche*), bir-biriga ta'sir (*interrelazione – relazione tra due o più elementi, interdipendenza – dipendenza tra due o più cose*).

PRO- Vaqt va fazoda –old, oldingi (*pronipoti – nipoti figlio del nipote*) kabi ma'nolarni ifodalovchi ot, fe'l va sifatlarni yasash uchun ishlatiladigan prefiks. Bo'lim, yordam beradigan, qisimdan bo'lgan ma'nolarni anglatuvchi ma'nolatuvchi otlardan iborat bo'lishi ham mumkin (*progovernativo – a favore del governo*) yoki bo'lmasa ayrim vaqtlarda o'rinbosar ma'nosini ham ifodalashi mumkin (*prorettore – sostituto del rettore*).

SEMI- O'rta, ora ma'nolarni ifodalab keluvchi prefiks hisoblanadi (*semicerchio – meta di un cerchio, semiasse – meta di un asse*), qiyosiy darajani sifatlarni ham ifodalab keladi (*semiautomatico – in parte automatico, semipieno – quasi pieno*).

SUPER- Bu prefiks fazoning yuqori holatini (*superattico*), hajm,

chegaraning yuqoriligini (*supersonico, supermercato*), ortirma darajani (*supercaburante*) ayniqsa, ommaviy xatlardagilarni ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

2.2. O'zbek tilida sifat yasovchi qo'shimchalar.

2.2.1. Sifat yasovchi aktiv affikslar

O'zbek tilida boshqa so'z turkumlaridagi kabi sifat turkumida ham affiksasiya usuli bilan so'z yasash keng rivojlangan. Sifat yasovchi affikslar shakl va funktsiya jihatidan turli-tuman bo'lib, ot, ravish, fe'l yasovchi affikslarga juda o'xshab ketadi. Ba'zi sifat yasovchi affikslar kelib chiqishi nuqtai nazaridan arab, fors-tojik tillariga mansubdir.

Sifat yasovchi affikslar sodda (*yuza+ki, aql+li*), qo'shma (*odat+da+gi, kel+ish+im+li*) bo'ladi. Ba'zan butun boshli so'z affiksoidlar sifat yasaydi, mas:- *parvar (halqparvar), -parast (mansabparast)* kabilar. Bunday yasovchilar boshqa tildan kirgan bo'lib, o'zbek tilida so'zlik huquqiga ega, chunki bular mustaqil holda ma'no anglatmaydi.

Sifat yasovchi affikslarning ba'zilari funksiyasi jihatidan sinonimik xarakterga ega (*mazasiz-bemaza; betartib-tartibsiz; badavlat-davlatmand* kabi).

Yasovchi affikslar orasida omonim affikslar bor, ya'ni bular sifat, ot hamda boshqa turkumdagi so'zlarni yasashda teng qo'llanadi.

Affikslar vositasida turli so'z turkumlaridan (ot, sifat, olmosh, fe'l va taqlidiy-tasviriy so'zlardan) sifat yasaladi. Bulardan eng ko'p taraqqiy qilgani ot va fe'ldan sifat yasalishidir.

-li affiksi o'zbek tilida juda sermahsul, aktiv yasovchi hisoblanadi. Ko'pincha ot va sifatdoshlardan sifat yasaydi.

1. -li affiksi orqali yasalgan sodda sifatlar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

a) so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga (predmet, hodisa va boshqa. tushunchalarga) egalikni yoxud o'sha ma'noli narsa, hodisaning mavjudligini, borligini bildiradi: *mevali daraxt, vijdonli kishi, shakarli choy*;

b) **-li** affiksi o'zakdan anglashilgan ma'noga egalikni bildirish bilan birga ortiqlik, katta yoki mo'llik ma'nolarini beradi, Mas: *kuchli, gavdali*.

v) *-li* affiksi orqali (biror narsaga, faxr yoki in'omga, sevgiga) “sazavor”, “munosib”, “loyiq” ma’nolarini ifodalash mumkin: *sevikli, sevimli, hurmatli* va hok.

g) *-li* affiksi ifodalaydigan ma’no ba’zan *-digan* qo’shimchasi ma’nosiga teng keladi, Mas: *yoqimli (yoqadigan) odam; achinarli (achinadigan) hol; o’tirishli (o’tiradigan) joy; sezilarli (seziladigan) harakat; yuqumli (yuqadigan) kasallik.*

d) *qiyomatli* so’zidagi *-li* qisman *-gacha* affiksi ma’nosiga to’g’ri keladi. *Qiyomatli do’st, qiyomatli qo’shni.*

j) shaxsning biror joy yoki geografik muhitga taalluqli ekanini ham *-li* affiksi vositasida berish mumkin: *tog’li, shaharli, chimkentli, namanganli.*

2. *-li* affiksi qo’shma, juft so’zlarga qo’shilib kelib qo’shma sifat yasaydi va turli ma’nolarni anglatadi:

a) har ikkala komponentga qo’shiladi: *qo’lli-oyoqli(odam), uvali-juvali* (bu juft so’z affikssiz holda “*uva-juva*” tarzida ishlatilmaydi), *aqlli-xushli* kabilar.

b) *-li* affiksi qo’shma so’zlarning bir komponentiga qo’shilib, idiomatik iboralar, ko’chgan ma’nodagi sifatlar hosil qiladi: *odamjonli, og’ir oyoqli (//og’ir oyoq), qattiqqo’lli (//qattiqqo’l), oq ko’ngilli (//oqko’ngil), to’laqonli, arslon bilakli, to’rt burchakli* va boshqalar.

-lik, (-liq) formantlari orqali aloqadorlik, xoslik, taalluqlilik, holat ma’nolarini ifodalaydigan sifatlar yasaladi.

-lik (-liq) affiksi bilan yasalgan sifatlar:

a) holat bildiradi, Masalan, *Pastlik, tepalik, chuqurlik, qiyalik* kabi sifatlar shular jumlasidandir.

b) biror davr bilan bog’liligni bildiradi: *bolalik, go’daklik, yigitlik* kabi.

v) xususiyat, xossa bildiradi: *arzirlik, jo’yalik, didlik, insonlik.*

g) aloqadorlik, mansublikni bildiradi: *temirchilik, taqachilik, sartaroshlik, attorlik* kabi.

Bulardan tashqari *-lik* affiksi turli fe’l formalariga (sifatdosh, ish otlariga) qo’shilib xarakter-xususiyat, xossa bildiruvchi sifatlar yasaydi. Mas: *arzigulik,*

o'tirishlik, o'qimishlik, aralashimlik, kirishimlik kabi.

-lik va **-li** affikslarining vazifadosh o'rinlari bor, ya'ni ayrim sifatlar **-li** qo'shilgan formada qo'llanganda ham, **-lik** qo'shilgan formada qo'llanganda ham ma'noga halal yetmaydi. Mas: *aqlli — aqllik, kirishimli — kirshiimlik, aralashimli — aralashimlik, chiroyli — chiroylik, pulli — pullik* va hok.

Ba'zi sifatlarning esa, **-li** olgan formalari bilan **-lik** olgan formalari grammatikada boshqa-boshqa ma'no va boshqa-boshqa vazifa uchun ishlatiladi. Mas: *ko'ylakli (odam)— ko'ylaklik (chit), bolali (xotin)—bolalik (chog'lar)* kabi.

-siz- bo'lishsizlik ma'nosini beruvchi bu affiks sifat yasashda aktiv qo'llanadi. **-siz** affiksi ishtirokida ko'pincha otlardan xarakter-xususiyat, xossa, holat bildiruvchi sifatlar yasaladi: *qarovsiz, aqlsiz, sababsiz, mantiqsiz, molsiz, ishsiz* va hok.

-siz yasovchisi orqali yasalgan sifatlarni anglatgan ma'nolariga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin: a) so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga (predmet, hodisa, holat va boshqalar. tushunchalarga) ega emaslikni, undan mahrumlikni, narsa, hodisa va hokazolarning mavjud emasligini yoki inkor ma'nolarni bildiradi: *yersiz, kimsasiz. asbobsiz, kulbasiz, baxtsiz, vafosiz, jonsiz, keraksiz* va boshqalar.

b) biror predmet, holat yoki imkoniyatga ega emaslik, undan mahrumlikni ifodalaydi: *huquqsiz, ilojsiz, himoyasiz, uyqusiz, javobsiz, kuchsiz* kab.

v) salbiy xarakter-xususiyat yoki holat anglatadi: *uyatsiz, sharmsiz, tarbiyasiz, odobsiz, hayosiz, tuturiqsiz, burdsiz, subutsiz, tartibsiz* kabi.

g) ijobiy holat, xossa anglatishi ham mumkin: *g'uborsiz, tashvishsiz, g'am-g'ussasiz* kabi.

-siz affiksi mantiqan **-li** affiksining antonimidir. Lekin hamma holatda ham **-li** bilan yasalgan sifatlarning ziddini, inkorini yoxud antonimini **-siz** bo'lishsizlik affiksi orqali berib bo'lmaydi yoki buning aksi, **-siz** bilan yasalgan sifatning bo'lishli formasini yasash uchun **-li** qo'llanmaydi. Ularning antonim ma'nolari boshqa turli affikslar, zid ma'noli so'zlar yoki izohlash yo'llari orqali ifodalanadi. Mas: *chiroyli-xunuk, o'qimishli-omi, o'tirishli-o'tirishli emas* va boshq.

Ba'zi sifatlarning bo'lishli ma'nolarini, antonimlarini hosil qilish uchun ularni

yasovchi affiks-larisiz, negiz holida qo'llash kifoya: *to'liqsiz — to'liq, qulay-siz — qulay kabi.*-li orqali yasalgan qo'shma, juft, birikmali sifatlar deyarli hiech qachon -siz affiksi bilan bo'lishsizlik hosil qilmaydi. Mas: *tishli-tirnoqli, qo'lli-oyoqli, ko'p xonali, uzun bo'yli, uvali-juvali* kabi.

-siz affiksining *no-*, *be-* sifat yasovchilari bilan vazifadosh o'rinlari bor: *keraksiz — nokerak, o'rinsiz — noo'rin, vaqtsiz — bevaqt, sababsiz — besabab* kabi. Lekin bu vazifadoshlikda ham stilistik jihatidan farqlanib qolgan variantlar uchraydi. Mas: *notavon, nodon, nokas, noyob, notekis* kabi sifatlardagi *no-* o'rnidan -siz affiksini qo'llab bo'lmaydi: *betavfiq, bebaqo, benavo, behuzur, betob* sifatlari ham shular jumlasidandir.

-gi, -ki, -qi. O'rin va paytga munosabat bildirishda qo'llanuvchi bu affikslar turli so'z turkumlaridan sifat yasaydi:

a) o'ringa munosabat, xoslik bildiradi, mas: *tashqi ichki, narigi, berigi, ostki, ustki, pastki, sirtqi;*

b) paytga munosabat, xoslik bildiradi: *kechagi, burungi, qadimgi, tonggi, boyagi, bahorgi, bulturgi, tushki, ertalabki, ert'angi;*

v) -gi affiksi o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi (-da)-dan keyin qo'llanganda o'rin va paytga xoslik, munosabat ma'nolari yanada aniqlashadi, umumiy xoslik konkretlikka o'tadi. Ayni vaqtda voqea, hodisa sodir bo'lgan payt yoki joyni xotirlash, eslatish kabi ma'nolarni ham anglatishi mumkin: *yozdagi (sayohat), oydindagi (suhbat), bozordagi (g'alva), u yerdagi, bu joydagi, risoladagi(qiz), uydagi (mehmon).*

-gi, -ki, -qi affikslari ba'zi hollarda -lik yasovchisi bilan almashinib qo'llana oladi: *yozgi — yozlik, qishki — qishlik* kabi.

-ki, (-a-ki), -qi (-a-qi), -i (-yi) yasovchilari xoslik, xarakter-xususiyat, xossa bildiruvchi sifatlar yasaydi:

a) xarakter-xususiyat bildiradi: *jizzaki, jirraki, jirtaki, o'ynoqi, yig'loqi, vaysaqi, shallaqi, sharttaki, sayroqi, bezori, havoyi;*

b) xossa bildiradi: *qalbaki (hujjat), yuzaki (bilim), aymoqi (tok), qayroqi (uzum), xomaki (plan).*

v) xoslik, aloqadorlik, o'xshashlik bildiradi: *dahanaki (jang)*, *xonaki (kiyim)*, *pistoqi (rang)*, *qalami(bo'z)*, *chillaki (uzum)*, *arabi (ot)*, *iroqi (chok, do'ppi)*, *ertaki (meva)*, *sahroyi (o'simlik)*, *qishloqi, qashqari, en.aydari (bug'doy)*;

g) holat bildiradi: *illati (mushuk)*, *ko'tarini(ruh)*, *savdoyi (kishi)*, *fidoyi (odam)*.

-k (-ik, -uk, -ak), -q (-iq, -uq, -oq). Bu affikslar turli so'z turkumlaridan, ko'pincha fe'ldan sifat yasaydi: *chirik (chiri+k)*, *ochiq (och+iq)*.

Anglatadigan ma'nolari:

a) biror holatni ifodalaydi: *tiniq (suv)*, *siniq(idish)*, *buzuq (soat)*, *teshik (tog'ora)*, *yoriq (dutor)*, *titroq (ovoz)*, *g'alvirak (yong'oq)*;

b) shakl-ko'rinish ifodalaydi: *puchuq (burun)*, *botiq(shakl)*, *qiyiq (ro'mol)*, *egik (temir)*, *puchak (koptok)*;

v) xususiyat, xossa ifodalaydi: *qochiriq (gap)*, *qo'rqoq (odam)*, *pishiq (buyum)*;

g) holat, tur ifodalanadi: *murg'ak (bola)*; *qimizak (olma)*.

-k (-ik, -uk, -ak), -q (-iq, -uq, -oq) affikslari bilan yasaladigan sifatlar o'zagida quyidagi holatlarni ko'rish mumkin:

1) Affiks (buyruq mayl formasiga) qo'shilganda o'zakda o'zgarish bo'lmaydi: *ili+q*, *qizi+q*, *yop+iq*, *tesh+ik*, *sin+iq*, *bo'l+iq*, *tin+iq* va hok.

2) Undosh bilan tugallangan so'zlarga **-q** sifat yasovchisi **-aq** shaklida qo'shiladi. Lekin q ning ta'sirida a tovushi o ga o'tadi: *qol + o+-q—qoloq*, *qoch + o + q—qochoq*.

3) a) O'zak (buyruq fe'l formasi) **a** bilan tugallangan bo'lsa, **-q** yasovchisi ta'sirida **o** ga o'tadi¹⁰: *yumsha—q—yumshoq*, *tarqa+q — tarqoq*, *quvna+q—quvnoq*, *char+cha+q — charchoq*, *qayna + q—qaynoq*; *oqsa + q—oqsoq*.

b) o'zakning oldingi bo'g'inidagi tovushlar (Masalan, *u*, *v*) ta'sirida affiksdagi unlilarda singarmonizm hodisasi yuz beradi, ko'pincha *i* tovushi *u* tarzida talaffuz qilinadi: *buz+iq—buzuq*; *suz+ik—suzuk*.

v) affiks olgandan keyin o'zakning so'nggi tovushlarida ham o'zgarish yuz

¹⁰ O'zbek shevalarida bu tovush **a** shaklida talaffuz qilinaveradi.

beradi: *quri+q—quruq; chuchi+k—chuchuk*.

4) affiks olgandan so'ng ba'zi o'zaklardagi keyingi undoshlar ikkilanadi: *achi+q—achchiq, qat+iq—qattiq, isi+q—issiq*.

Ammo adabiy til uchun o shakli (Toshk. shev. bo'yicha) qabul qidingan.

5) Affiks o'zakdagi so'nggi undoshni siqib chiqaradi (buyruq ma'nosi yo'qoladi): *suyul—suyu+q—suyuq; tiril—tiri + k—tirik; yuksal—yuksa + k—yuksak; qiyshay—qiysh + i + q—qiyshiq* kabilar.

6) *Syrak, tiyrak, shaparak, g'ovak, tansiq* kabi sifatlar tashqi ko'rinishidan yuqoridagi yasama sifatlarga juda o'xshaydi. Ammo o'zakning o'zi (affikssiz holda, ya'ni *siyra, tiyra, shapar, g'ova* holda) ma'no anglatmaydi va na buyruq fe'li, na ot vazifasini o'tamaydi. Demak, hozirgi zamon tili nuqtai nazaridan ularni morfologik tarkiblarga ajratmay, tub sifatlar qatorida o'rganiladi.

-k, -q affiksi bilan yasalgan quyidagi so'zlar ham sifatlik, ham otlik vazifasida qo'llana oladi: *yamoq, yoriq, puchuq, sovuq, issiq va hok.*

Qo'shma, juft sifatlar komponentlarida **-k, -q** affikslari orqali yasalgan so'zlar deyarli uchramaydi.

-d o r (tojik tilidan kirgan). Bu affiks asosan ot turkumidagi so'zlardan sifat yasaydi. Hosil bo'lgan sifatlar quyidagi ma'nolarni ifodalab keladi:

1) O'zakdan anglashilgan ma'noga (predmet, hodisa va boshqalarga) egalikni, o'sha ma'nodagi narsa yoki hodisaning borligini anglatadi. Bu jihatlari **-li** affiksiga to'g'ri keladi. Mas: *xoldor (qiz), rangdor (chit), jimjimador (quti), nishondor (ishchi), ohangdor (kuy), qarzdor (odam), panjarador (karavot)*.

2) O'zakdan anglashilgan predmet tushunchasining ortiqligini, kattaligini, ko'pligini, sifati yaxshiligini bildiradi. Bu jihatdan **ser-** affiksi xususiyatiga to'g'ri keladi: *puldor (odam); yag'rindor (polvon), hosildor, mahsuldor (yer), husndor (qiz), mazmundor (asar), hashamdor (naqsh), jarangdor (kulgi), zotdor (mol)* va boshq.

3) **-dor** bilan yasalgan sifatlarning ba'zilar xarakter-xususiyat, xossa, holat bildiradi: *Dumog'dor (qiz), jozibador (ko'rinish), vafodor (yigit), azador, aybdor, minnatdor, manfaatdor, tarafdor, va hok.*

4) O'zakdan anglashilgan predmet, hodisa tushuichalariga egalik, moliklik, uni zabt etganlik yoki o'z hukmda tutish, ishonch bildirish kabi ma'nolarni anglatadi: *gojdor, hukmdor, dindor, bayroqdor, do'kondor, tug'dor* va boshq.

-kor (-gar). Bu affiks asosan ot turkumidagi so'zlardan sifat yasaydi. Yasalgan sifatlar turli o'zakdan anglashilgan predmet, hodisa tushunchalariga ega ekanlikni va o'sha narsa bilan shug'ullanuvchi, uni targ'ib, namoyish qiluvchi shaxs ma'nosini anglatadi: *tashabbuskor, fidokor (ayol), xizmatkor, ehtiyotkor, mo'jizakor, xaloskor, paxtakor, sholikor, bastakor, sohibkor, madadkor* kabilar.

Bu sifatlarning ko'pi shaxs bilan bog'liq bo'lganligi sababli ot funksiyasida ham qo'llanaveradi.

-iy, -viy (arab tilidan kirgan). Bu affiks ot turkumidagi so'zlardan sifat yasaydi. Hosil bo'lgan sifatlar xoslik, taalluqlilik, xossa bildiradi. **-iy, -viy** affiksining morfologik xarakteri turlicha:

1) Yasalgan so'z morfemalarga (o'zak va affiksga) ajralish xususiyatini saqlaydi: *ommaviy, g'oyaviy, tarixiy, tarbiyaviy, samoviy, afsonaviy, tashkiliy, taxminiy, hayotiy, qiyosiy, qonuniy, mavsumiy, texnikaviy* va boshq.

2) Yasalish prosessida fonetik o'zgarish yuz beradi: so'z o'zagidagi ayrim tovushlar o'zgaradi yoki ikkilanadi: *tabbiy, fanniy, hissiy*. Bunday ikkilanishning asosiy sababi *tib, fan, his* kabi so'zlarning arab tilida *tibb, fann, hiss* tarzida qo'sh undosh bilan qo'llanishi tufayli bo'lishi mumkin.

3) So'z morfemalarga ajralish xususiyatini yo'qotgan holda uning forma va mazmuni boshqacha tus olgan bo'ladi. Masalan, *madaniy, siyosiy, voqeiy, musiqiy, samimiy, saxiy, shar'iy, haqiqiy, haqqoniy, tabiiy, falsafiy* kabi. O'zbek tilida bu so'zlarning affikssiz holdagi "noto'liq" formalari qo'llanmaydi, balki ularning (ot turkumiga xos bo'lgan) *madaniyat, siyosat, samimiyat, sahovat, haqqoniyat, haqiqat, tabiiyot, falsafa* kabi to'liq formalari ishlatiladi. Bu (3-punktga) gruhlashtirilgan sifatlar yasama sifatlardan ko'ra, tub sifatlarga yaqinroq turadi. *Jiddiy, ashaddiy, sun'iy, foni, salbiy, ijobiy, oddiy, harbiy* kabi so'zlar ham tub sifat hisoblanadi.

-ma affiksi ish-harakat natijasida hosil bo'lgan belgini bildiruvchi sifat

yasaydi: *suzma qurt, qovurma sho'rva* kabi. Bu affiks:

a) o'timli (buyruq) fe'llarga qo'shilib, xarakter, xossa, holat bildiruvchi sifatlar yasaydi: *sugma (piyoz), tizma (tog'), uydirma (gap), chiyratma (arqon), ag'darma (etik), qaytarma (yoqa), tug'ma (odat), yasama (tish), bo'yama (soch), osma (ko'prik)*;

b) o'timsiz (buyruq) fe'llarga qo'shilib xarakter-xususiyat, xossa, holat, shakl, usul bildiruvchi sifatlar hosil qiladi: *sudralma (odam), shaldirama (qog'oz), hovliqma (xotin), qotma (bola), ko'chma (qum), aylanma (yo'l)*.

v) *-ma* affiksi *-illa* bilan yasalgan fe'llarga qo'shilib, xossa, xususiyat bildiruvchi sifat yasaydi; *qirchillama (sovuq), g'irchillama (qor), dang'illama (imorat)* kabi.

-ma affiksi orqali fe'l o'zaklaridan sifat yasalganda bu affiks ma'nosi *-digan, -laydigan* qo'shimchalari ma'nosiga teng keladi. Mas: *sudralma — sudraladigan, g'archillama — g'archillaydigan*.

g) *dang'illama, laqma* sifatlarida so'z o'zagi affikssiz holda ishlatilmaydi, chunki o'zak holida ma'no anglatmaydi. Shu jihatdan bu sifatarni tub sifatlar sirasiga qo'shish mumkin.

-dek, -day affikslari ot, sifat, fe'l olmosh turkumidagi so'zlardan sifat va ravish hosil qilishda aktiv qo'llanuvchi yasovchilardir.

-dek, -day affiksi *-dayin* qo'shimchasining qisqargan formasi bo'lishi mumkin. Chunki hozirgi jonli tilda *-dek, -day* o'rnida *-dayin* formasining qo'llanib turishi uchraydi.

-dek, -day affiksi otlarga qo'shilganda o'zakdan anglashilgan predmet ma'nosiga qiyoslash, o'xshatish yo'li bilan hajm-miqdor, shakl-ko'rinish, hid, maza kabi belgi ma'nolarini ifodalab keladi hamda umuman badiiy tasvir, belgi ma'nosini oshirish, mubolag'a, ko'chgan va ekspressiv ma'nolarni berishda keng qo'llanadi. Mas: *no'xotdek-no'xotdek (marvarid), qanddek (mastava), muzdek (suv), tog'dek (yigit), oydek (juvon), zig'irdek (bola)* va boshq.

Bu affiksning quyidagi semantik-stilistik xususiyatlari diqqatga sazovordir:

a) *-dek* orqali yasalgan ba'zi sifatlar, yaxlit, monolit holga kelib qolgan,

bundagi o'zaklar hozirgi tilda mustaqil ma'nosini yo'qotgan. Mas: *jo'jabirdek// jo'jabirday (jon), qitday (tuz)*.

Qiyos qiling: *beso'naqay, betavfiq, bejirim* kabilar (bulardagi o'zaklar ham mustaqil qo'llanmaydi);

b) *-dek* orqali yasalgan so'z bilan o'zakning ma'nosi bir-biridan uzoqlashib, farqlanib qoladi. Masalan, *balodek kelin ekan*. Bundagi o'zak, ya'ni *balo* so'zi aslida "ofat", "kulfat" kabi salbiy ma'nolarni anglatishiga qaramay, *-dek* qo'shimchasi qo'shilib unga ijobiy ma'nodagi belgi, modallik ma'nolarini bag'ishlaydi. *Balodek* so'zi sifatning aniqlovchisi bo'lib xam xizmat qilishi mumkin: *balodek yaxshi qiz ekan*.

Shunga o'xshash, hayajon ifodalovchi hayhot undov so'zidan *-dek* orqali (*hayhotdek hovli*) "juda katta", "juda keng" ma'nolarini beruvchi sifat hosil qilinadi. Ravish turkumidagi *dangal* so'zidan *-dek* orqali (*dangaldek kishi*), "katta", "*beso'naqay*" kabi ma'nolarni beruvchi sifat yasaladi;

v) *-dek* affiksi bilan *noo'rin, nojo'ya* qo'llanadigan til faktlari uchraydi. Mas: *binoyi* so'zi aslida "*soz*", "*yaxshi*", "*bir yaxshi*" ma'nolarini beradi. Shunday ekan, uni *-dek* affiksisiz qo'llash lozim (Qiyos qiling: *yaxshi kostyum — yaxshidek kostyum*). Bu so'z chetdan kirganligi sababli shunday (*binoyidek*) formada qo'llana olgan. *Sumbatdek* sifatining o'zagi *sumbat* — "*qaddi-qomat*", "*bast*", ma'nolarini beradi. Shu jihatdan *qaddi-qomati sumbatdek* juvon deb qo'llash logik asosdan mahrum ko'rinadi (ya'ni aslida *sumbati* kelishgan juvon tarzida qo'llash mantiqqa to'g'ri bo'lur edi). Lekin shunga qaramay, *sumbatdek* formasi tilga o'rnashgan;

g) *-dek* orqali yasalgan so'z o'zagida fonetik va morfologik o'zgarishlar yuz beradi. Jumladan: *nozandek (ayol)*. So'z o'zagi "nozan" mustaqil ma'no anglatmaydi. Chunki u *nozanin ("go'zal ayol", "jozibali ayol")* so'zining qisqargan holatidir. Lekin *nozandek* sifati "tuppa-tuzuk", "yaxshigina", "bir yaxshi" ma'nolarida juda ko'p predmetlarga nisbatan qo'llana oladi: *nozandek palto, nozan dekovqat va hokazo*.

-dek affiksi jonli tilda *-day, -dak, -dog', -do* shakllarini oladi.

-dek affiksi qo'shma, takroriy so'zga qo'shilib kelib, turli ma'no ottenkalarini

beradi: *moshdek-moshdek (marvarid)*, *zig'irdek-zig'irdek* bolalar shuncha qiyin ishlarni bajarishipti va hok.

2.2.2. Sifat yasovchi passiv affikslar

-vor (o + vor). Bu affiks ot, sifat turkumiga oid so'zlardan sifat yasaydi. Xoslik xarakter-xususiyat, shakl, holat kabi belgi ma'nolarini anglatadi (adabiy tilga xos): *ulugvor, afsonavor, mardonavor*

-loq (a+loq). Bu affiks ot, sifat turkumidagi so'zlardai holat, shakl, xususiyat kabi belgi ma'nolarini ifodalovchi sifat yasaydi: *qatqaloq (yo'l)*, *ovloq (uy)*, *ug'ijmaloq (ko'ylak)*, *qo'shaloq (g'o'za)*, *yapaloq*¹¹ (*kosa*), *chaqaloq (bola)* *o'tloq (yer)*, *qumloq (sohil)* kabilar shular jumlasidandir.

-loq affiksi bilan yasalgan sifatlar ot vazifasida qo'llanishga juda moyil.

-qin, -g'in, -gin affikslari buyruq fe'llaridan xoslik, xarakter-xususiyat, holat ma'nolarini anglatuvchi snfatlar yasaydi: *sotqin (kiish)*, *jo'shqin (daryo)*, *toshqin (suv)*, *yorqin*¹² (*fikr*), *g'amgin (siymo)*, *keskin (masala)*.

Bu sifatlardan shaxs belgisi uchun qo'llanadiganlari (*mas; qochqin, sotqin, tutqin singarilari*) ot vazifasida ham ishlatilaveradi.

-kir -gir, -qir, -g'ir. Bu affikslar fe'llarning, buyruq formalariga qo'shilib, aktiv xususiyat, xossa tushunchasini beruvchi sifatlar yasaydi: *o'tkir, keskir (pichoq)*, *chopqir (tesha)*, *sezgir (bola)*, *tamagir (odam)* va hok.

Bulardan o'tkir so'zi juda ko'p hollarda ko'chgan ma'nolarda qo'llanadi.

-kor affiksi orqali yasalgan sifatlar ko'proq adabiy tilga mansub. Asosan ot turkumidagi so'zlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan tushunchaga egalikni, u tushunchaning ortiqligini yoki unga o'xshashlik, xoslik, xususiyat, holat ma'nolarini ifodalovchi sifatlar yasaydi. Mas: *fusunkor (olam)*. *shiddatkor (ishchi)*.

-kor affiksi bilan yasalgan sifatlarning ba'zilar ot vazifasida ham qo'llana oladi. Mas: *bastakor, xizmatkor*.

-qoq, -g'oq. Bu affiks fe'l o'zak-negizlariga qo'shilib, xarakter, xususiyat, holat kabi ma'nolarni beruvchi sifatlar hosil qiladi: *yopishqoq (balchiq)* *tirishqoq*

¹¹ *Yapaloq* so'zi affikssiz holda ma'no anglatmaydi.

¹² *Yorqin* – bu so'znig o'zagi.

(bola), urushqoq (odam), botqoq (yer). *toyg'oq* (yo'l), *burishqoq* (olma).

-kash (tojik tilidan kirgan). Bu affiks ot turkumidagi so'zlardan kishiga xos xarakter-xususiyat, turli (tabiiy, ruhiy va boshqalar.) holat, vazifa va hokazo belgilarni bildiruvchi sifatlar hosil qiladi: *dilkash (chol) zaxmatkash, mehnatkash (kishi); noskash (kampir), zaxkash. (yer), chalkash (masala), pastkash/sustkash (odam), kirakash (arava), tarafkash (odam), hazilkash (kishi), aravakash (chol)* kabilar.

Bulardan, kishilarga xos belgilarni ifodalovchi sifatlar ko'pincha ot vazifasida ham ishlatiladi.

-mol (a + mol). Bu affiks ot va buyruq fe'llaridan xarakter-xususiyat, holat, xossa bildiruvchi sifat yasaydi: *so'zamol (kishi). Dudmol, mujmal (gap)* kabi so'zlar **-mol** affiksi bilan yasalgan bo'lishiga qaramay, affiksdan ajralgan (o'zak) holda ma'no anglatmaydi.

-cha affiksi turli so'zlarga qo'shilib, ot, ravish, shuningdek sifat yasashi mumkin. **-cha** affiksi egalik yoki ko'plik kategoriyalari qo'shimchasidan keyin qo'shilganda deyarli hamma vaqt ravish ma'nosini beradi.

Ba'zi sifatlariga qo'shilib **-cha** affiksi qo'shimcha — modal ma'no beradi: *qoracha, ola-olacha* kabi. Anglatgan ma'nolari:

- a) uslub, tur, xil bildiradi: *afg'oncha rubob, o'zbekcha ko'ylak, ruscha fason;*
- b) holat, ko'rinish bildiradi: *xipcha bel;*
- v) hajm-miqdor bildiradi: *tariqcha (aql), zarracha (foйда) kabilar.*

Sifat yasovchi **-cha** affiksining anglatayotgan ma'nosi ba'zan **-dek, -day** affiksi funksiyasiga teng keladi: *zig'ircha — zig'irdek kabi:*

O'zak bilan **-cha** affiksi oralig'ida bir *n* tovushining orttirilishi (Masalan, *o'rtacha—o'rtancha*) so'zlarni differensial farqlash uchun kerak bo'lgan bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, o'rtacha va o'rtancha so'zlari bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi: *O'rtacha ziyofat — o'rtancha o'g'il.*

-chan (chang) sifat yasovchi affiksi o'zakdan anglashilgan predmet, hodisa tushunchalariga ortiqlik, aktivlik kabi belgi ma'nolarini beradi. Ot turkumidagi so'zlarga qo'shilib xarakat-xususiyat, xossa, holat bildiruvchi sifatlar yasaydi.

Mas: *yashovchan* (*jonivor*), *o'zgaruvchan* (*havo*), *ishchan* (*yigit*), *kurashchan* (*xalq*), *talabchan* (*rahbar*) va boshqalar.

Bu misollarning ko'pida *-chan* bilan parallel ravishda *-chang* affiksini ham ishlatish mumkin: *ko'ngilchan* — *ko'ngilchang*, *ishchan*—*ishchang*, *uyatchan*—*uyatchang*.

Lekin *-chang* affiksining yana o'ziga xos funksiyasi ham bor. *-chang* otlarga qo'shilib o'zakdan anglashilgan tushunchaga egalikni yoki ega emaslikni anglatadi. Mas; *ko'ylakchang*, *maxsichang*, *yaktakchang* va boshqalar.

Umuman, *-chang* affiksi bilan yasalgan so'zlarning ma'nosi ikki xil tushunilib qolgan. Ayrim dialekt va shaxslar tushunchasida shu predmetga ega emaslik anglashilsa, ayrimlarida faqatgina shu predmetga egalik anglashiladi.

-chi bu affiks asosan ot yasovchi hisoblanadi. Lekin sifat yasashda ham qo'llaiadi. Asos bo'luvchi negizlar deyarli otlardan bo'ladi: *gapchi* (*odam*), *adovatchi*, *tuhmatchi* (*kishi*), *askiyachi* (*yigit*), *maslahatchi* (*kishi*), *o'yinchi* (*qiz*) kabi.

Ba'zan *-chi* boshqa so'z turkumlaridan ham sifat yasaydi: *dangalchi* (*xotin*), *bekorchi* (*gap*), *ayirmachi* (*odam*), *qiziqchi* (*odam*) va hok.

Ko'rinadiki, bunday sifatlar ko'proq insonga xos xarakter-xususiyat belgisini va vazifa bajaruvchilik ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun ham ko'p hollarda sifatlanmish tushirib qoldirilib sifatlovchi so'z ot tarzida qo'llanaveradi: *O'yinchi keldi*, *bekorchidan hamma bezor*, *millatchi sud qilindi* kabilar (aniqlik kiritishga hojat bo'lgandagina sifatlanmish tiklanadi).

-mand, -vand. Bu affiks otlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan predmet ma'nosiga egalikni, ortiqlik, davomiylik ma'nolarini beradi. Xarakter-xususiyat, holat kabi belgilarni ifodalovchi shaxsga xos sifat yasaydi: *ixlosmand*, *ishtiyoqmand*, *hunarmand*, *davlatmand* kabilar. Jonli so'zlashuvda bu affiks *-man*, *-van*, *-von* shakllariga kelib qolgan: *hazilvon*, *ayolman*.

-mon, -man. Bu affiks *-ar* formali fe'llarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan ma'noning ortiqligini ifodalaydi, xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar yasaydi. Mas: *bilarmon*, *ustomon* kabilar. Bu so'zlar ayni choqda kesatiq, kinoya kabi

ma'nolar uchun ham qo'llanishi mumkin.

-mon, -man, affiksi qo'shma, juft so'zlarga qo'shilib turli ma'nodagi sifatlar yasaydi: ustabuzarmon, toparman-tutarman, ishbilarmon.

-chIQ buyruq fe'l formasiga qo'shilib, xarakter-xususiyat, xossa bildiruvchi sifat yasaydi: *sirg'anchiq//sirpanchIQ (yo'l), qizg'anchiq (odam)* va boshqalar.

-choq, -chak.. Bu affiks aslida ot yasovchi (ko'pincha kichraytish otlari yasovchi) forma hisoblanadi. Lekin ba'zan, fe'lning buyruq formalariga, sifatlariga qo'shilib xarakter-xususiyat, holat, shakl-ko'rinish kabi ma'nolarni beruvchi sifat yasaydi. Masalan, *tortinchoq, erinchoq, yalinchoq, tiqmachIQ (tiqmachIQdek), cho'zinchoq* va sh .k.

-on, -yon, -an. Bu affiks otlarga qo'shilib, xususiyat, holat bildiruvchi sifat yasaydi: *charog'on, za'faron, shodon, tuban* kabilar.

-in (-k+in) affiksi ot va buyruq fe'llardan xarakter-xususiyat, holat bildiruvchi sifatlar hosil qiladi: *Chirkin (kiyim) keskin, (burulish) to'kin (dasturxon) kamtarin (ayol), to'lin (oy), sog'in (sigir); erkin (qush).*

Bu affiks bilan yasalgan kamtarin so'zi kamtar so'zi bilan bir xil mazmunga ega.

-gar affiksi otlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan tushuncha (predmet, hodisa) bilan shug'ullanuvchi, bajaruvchi ma'nosini anglatadigan (shaxsga xos) belgi so'zlarini hosil qiladi: *ig'vogar, sehrgar, firibgar, jodugar, savdogar, misgar, chilangar* va b. Hozirgi davrda bu affiks bilan so'z yasalmaydi.

-von (a+von). Bu affiks otlardan holat, xususiyat ma'nolarini beradigap sifat yasaydi: *oynavon (uy) paxtavon (gap).*

-(a)g'on (digan?) affiksi ko'proq jonli tilga xos bo'lib, fe'llarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan ma'nolarning ortiqligini, mukammalligini ifodalovchi, xarakter-xususiyat, holat bildiruvchi sifat yasaydi; *bilag'on (kadrlar) chopag'on (bola), suzag'on (sportchi), topag'on (o'quvchi); kulag'on (qiz); tepag'on (ot), qopag'on (it)* va b.

Bu affiks **-an + gich (-on + g'ich)** yasovchisi bilan funksiyadosh bo'lib, xuddi shu ma'nolar berish uchun **+an + gich** yasovchisini ham qo'llash mumkin.

-qa affiksi bir nechta sifatlardagina uchraydi, hajm, holat kabi ma'nolar bilan bog'liq: *qisqa (bo'y)*, *jiqqa (yosh)* *loyqa (suv)*.

-s(-ma + s). Bu affiks ko'pincha -ma bo'lishsizlik formai bilan tugallangan buyruq fe'llarga qo'shilib, xarakter-xususiyat, holat bildiruvchi sifat yasaydi: *o'tmas (pichoq)*, *indamas (odam)*, *tolmas (kurashchi)*, *arzimas (bahona)*.

Bu affiks ko'proq xarakter-xususiyat, holat bildiruvchi qo'shma, juft sifatlar oxiriga qo'shilib keladi: *borsa-kelmas (joy)*; *tilbilmas (odam)*; *tepsa-tebranmas (kishi)*; *tinib-tinchimas (odamlar)*; *bo'lar-bo'lmas (gap)*, *kiish bilmas (og'riq)* va hok.

Bir guruh sifat yasovchi affikslar borki, ular "o'xshaydigan", "o'xshash", "ko'riishga ega" ma'noli sifat yasaydi. Bular quyidagilar:

-namo (tojik tilidan kirgan). Bu affiks ot va sifatlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan predmet, hodisa, holat tushunchasiga, "o'xshash" degan ma'noni beruvchi sifat hosil qiladi: *olimnamo*, *majnunnamo*, *mullanamo* va hok.

-omuz (tojik tilidan kirgan omez—"aralash"). Bu affiks ot turkumidagi so'zlardan, o'zakdan anglashilgan tushunchaga "o'xshash", "aralash" ma'nolarini beruvchi xususiyat, xossa bildiruvchi sifat yasaydi: *masxaraomuz (ovozi)* *zaharomuz (hazil)*.

-simon. Bu affiks ko'proq otlarga qo'shilib "o'xshash" ma'nosini berib, xususiyat, xossa, shakl bildiruvchi sifat yasaydi: *maymunsimon*, *odamsimon*, *oysimon*, *tuxumsimon*.

Jonli so'zlashuvda -simon o'rnida ba'zan taxlit (taqlid) so'zi ham ishlatiladi (odamtaxlit).

Rus tili orqali kirgan internasional so'zlar tarkibida -on (-ion), -ial, -ik, -iv kabi sifat yasovchi affikslarni uchratish mumkin. Bu affikslar o'zlarining quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

-on. Bu affiks oxiri -iya bilan tugallangan otlarga (sovet-internatsional so'zlariga) qo'shilib, xoslik, aloqadorlik ma'nolarini beradi va xarakter-xususiyat, xossa bildiruvchi sifat yasaydi. Bunda ot oxirida "ya" tushib qoladi: *revolyutsion*, *evolyutsion*, *intonatsion*, *revizion*, *traditsion*, *seleksion* va hok.

-ik affiksi sovet-internasional so'zlariga (otlarga) qo'shilib xoslik, aloqadorlik, oidlik bildiruvchi sifat yasaydi: *etnografik, stilistik, fantastik*.

-ik affiksi qo'shilgan so'zlarning o'zaklarida turlicha holatni ko'rish mumkin: a) o'zak to'liq formasini saqlaydi: *sinonim + ik, silindr + ik, avtomat + ik*; b) oxiri + *iya* bilan tugagan so'zlarda esa so'z oxiridagi *-iya* affiksi tushirilib, so'z o'zagiga **-ik** affiksi qo'shiladi: *strategik, arxeologik, etnografik*; v) **-izm** bilan tugagan sovet internasional so'zlarida **-zm** tushirilib, o'rni **-st** bilan almashtiriladi va ketidan **-ik** formanti biriktiriladi: *sotsializm — sotsiali + st + ik, kommunizm—kommuni + st + ik*; g) oxirgi **-ika** bilan tugagan (*statistika, gimnastika*) sovet-internasional so'zlarida, shu yasovchi qisqarib, o'zak sifat yasovchi **-ik** affiksini qabul qiladi. Mas: *statistika—statistik, gimnastika—gimnastik, stilistika—stilistik*.

-ik bilan yasalgan ba'zi so'zlarni (*elastik, epik, yuridik, antik*) o'zak va affikslarga ajratib bo'lmaydi.

-iv affiksi sovet-internatsional so'zlaridan (otlardan) oidlik, xoslik bildiruvchi sifat yasaydi: *obyektiv, subyektiv, effektiv, konservativ* va hok.

-al, -ial affiksi sovet-internasional so'zlaridan (otlardan) oidlik, xoslik ma'nolarini beruvchi sifat yasaydi: *emotsional, sentimental, ekvatorial* va hok.

Bu affiks bilan yasalgan sifatlar o'zbek tilida uncha ko'p emas.

O'zbek tilida qo'llanib kelayotgan yana bir guruh sifat yasovchi affikslar tojik tilidan o'tgap bo'lib, aslida ular mustaqil ma'nodagi fe'l o'zaklaridir. Bu elementlar tojik tilida ham qo'shma so'z komponenti bo'lib keladi.

-boz, -voz (tojikcha bozidan—"o'ynamoq") affiksi otlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan tushuncha (predmet yoki hodisa) bilan ko'p shug'ullanadigan, unga qiziqadigan, juda berilgan kabi xarakter, xususiyat ma'nolarini beruvchi sifat yasaydi.

-boz, -voz affiksida shaxs ma'nosi ham aks etadi: *arizaboz, qimorvoz, buyruqvoz, askiyavoz, safsatavoz* va hok.

"Ishqiboz" (ishqivoz) so'zida **-boz** ning ma'nosi yuqoridagi misollardagi **-boz**ga nisbatan boshqacharoq. Bu so'z yaxlit holda, umuman, "qiziquvchan", "qiziquvchi", "havasmand" kabi ma'no kasb etadi: *futbolga ishq boz odam, ilmga*

ishqiboz kishi.

-boz bilan yasalgan lo'ttivoz. shavvoz kabi so'zlarda o'zak affiksdan ajralgan holda ma'no anglatmaydi.

-parast (tojikcha — parastidan, ya'ni “ta'zim qilmoq”, “cho'qinmoq”) affiksi otlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan tushunchaga (predmet, hodisaga) juda berilgan, odatlangan, cho'qinadigan, topinadigan kabi ma'nolarda xarakter-xususiyat bildiruvchi (shaxsga xol) sifat yasaydi: *molparast, bodaparast, shaxsiyatparast, butparast, amalparast* va hok. Bunday sifatlar ko'proq salbiy ma'noga ega bo'ladi.

-parvar (tojikcha — parvardan, ya'ni “o'stirmoq”, “parvarishlamoq”, “tarbiyalamoq”). O'zbek tilida **-parvar** holida mustaqil qo'llanmaydi, faqat yasovchilik vazifasini o'taydi, xolos. Bu affiks otdan xarakter-xususiyat bildiruvchi sifat yasaydi: *adolatparvar, vatanparvar, kambag'alparvar, ilmparvar, taraqqiyparvar, xalqparvar* va hok.

-xon (tojikcha — xondan, ya'ni “o'qimoq”, “kuylamoq” fe'lining buyruq formasi). Ot va sifatdan xossa, xususiyat bildiruvchi sifat yasaydi, juda passiv yasovchi. Mas: *kitobxon, jurnalxon, gazetxon, she'rxon, savodxon* va hok.

-xo'r (tojikcha — xo'rdan, ya'ni “yemoq”, “ichmoq” fe'liking buyruq formasi). Bu affiks otlarga qo'shilib xususiyat, holat bildiruvchi shaxsga oid sifat yasaydi: *g'amxo'r, aroqxo'r, go'shtxo'r, tekinxo'r* va hok.

-shunos//shinos (tojikcha — shinoxtan, ya'ni “bilmoq”, “anglamoq” fe'lining buyruq formasi). Bu affiks otlarga qo'shilib shug'ullanuvchi, biluvchi, mutaxassis kabi ma'nolarni beradi va holat, xususiyat ifodalaydigan (shaxsga oid) sifat hosil qiladi: *sharqshunos, adabiyotshunos, tilshunos* va hok.

-soz (tojikcha — soxtan, ya'ni “qurmoq”, “tuzatmoq”, “yasamoq”; fe'lining o'zagi) affiksi ot turkumidagi so'zlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan tushunchani (predmetni) yasaydigan, quradigan, tuzatadigan degan ma'nolardagi (shaxsga xos) sifat yasaydi: *soatsoz, mashinasoz, aravasoz*.

Shularga o'xshash yana **-furush//purush** — *do'ppifurush, chitfurush, to'nfurush, -do'z — etikdo'z, kavishdo'z maxsido'z, -paz — somsapaz, mantipaz*

kabi affikslar ham tojik tilidan o'tgan bo'lib, shaxsga xos hunar yoki biror kasbga oid sifat yasashda qo'llanadi.

Sifat yasovchi old qo'shimchalar (prefikslar). O'zbek tilidagi sifat yasovchi old qo'shimchalar tojik tilidan o'tgan. Bunday qo'shimchalarning miqdori u qadar ko'p bo'lmasa ham, bulardan *se r-*, *be-* prefikslari nisbatan mahsuldor yasovchi hisoblanadi.

ser- affiksi so'z o'zaklarining (ko'pincha otlarning) oldidan qo'shilib, o'zakdan anglashilgan ma'noning ko'pligini, ortiqligini, aktivligini anglatadi: *serpiyoz, sertuxum, sermazmun* va hok.

ser- affiksini ma'nosiga ko'ra quyidagicha gruxlarlashtirish mumkin:

a) miqdor jihatdan ko'plikni, unga egalikni anglatadi. Bunda ser- bilan yasalgan sifatlar xossa, xususiyat, holat ma'nolarini ifodalab keladi: *sermeva, sergo'sht, seryog', sersoch, serjun, serpaxta, sersut, serfarzand, serqatiq, serhosil* va hok.

Bu keltirilgan misollarda ser- yasovchisining ma'nosi ko'p so'zining ma'nosiga to'g'ri keladi;

b) **ser-** affiksi otlarga qo'shilib kelib o'zakdan anglashilgan tushunchaning ortiqligini, aktivligini va unga egalikni anglatadi. Bunday sifatlar ko'proq kishi xarakterini, biror belgisini ifodalash uchun xizmat qiladi va shaxsning aniqlovchisi bo'lib keladi: *serg'ayrat (odam), sergap kampir, serjahl kishi, serzavq yigit, serzarda odam* kabilar;

v) o'zakdan anglashilgan ma'noning ortiqligini anglatib xossa, xususiyat, holat ma'nolarini ifodalaydi: *serma'no, sermazmun, serqatnov, sertashvish*;

g) ser- qo'shimchasi olgan ba'zi so'zlar o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'nolarda ham ishlatiladi: *sersavlat* — "*ko'rkam*", "*kelishgan*" ma'nolarini bera oladi;

d) ba'zi so'zlarda ser- qo'shimchasi o'zak bilan birikib, yaxlit, ajralmas holga kelib qolgan: *serob, sergak* kabi.

be- prefiksi otlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan tushunchaga ega emaslikni, biror belgi yoki xususiyatning yo'qligini, inkorni anglatadi. Funksiya

jihatdan -siz affiksi va “yo’q” so’zlariga to’g’ri keladi: *besabr, beo’lchov, beodob* va hok. Bundan tashqari, yana o’ziga xos xususiyatlari ham bor:

be- yasovchisi otlarga qo’shilib o’zakdan anglashilgan tushunchaning inkorini, u predmet (xossa, xususiyat)ga ega emaslikni bildiradi. Bunday sifatlar ko’pincha: a) shaxsga oid xarakter-xususiyat, xossa-holatlarni ifodalab keladi va -siz affiksi orqali yasalgan bo’lishsiz ma’nodagi sifatlar bilan o’rin almashtira oladi: *begunoh, bemehr, berahm, betayin, bedarmon, besabr, beodob, beor, betoqat, bevasro*; b) turli shaklko’riiish, xususiyat, xossa, holat, payt kabi ma’nolar uchun qo’llanishi mumkin: *bedavo (dard), beo’xshov (odam) bevaqt (o’lim) bejanjal (kun) bebozor (kun)*.

Bu keltirilgan misollardagi **be-** qo’shimchasi -siz affiksi ma’nosiga deyarli teng keladi.

be- qo’shimchasi vositasida yasalgan quyidagi sifatlar o’rnida -siz bilan yasalgan bo’lishsiz variantni qo’llab bo’lmaydi. Qiyos qiling: *behuda — hudasiz*, keyingi variant qo’llanmaydi. Shunga o’xshash: *benihoya, benihoyat, bechora (odam), behad (shod), bebafo (dunyo), behuzur, betob, beozor, besaranjom, betaraf*.

bar- yasovchisi faqat uch to’rt so’zdagina uchraydi: *barvaqt, barkamol, bardoshli* va boshq.

bad- (tojik tilida bu so’z mustaqil (“yomon” ma’nosida) qo’llanadi hamda qo’shma so’zga komponentlik vazifasini o’taydi). **bad-** bilan yasalgan sifatlar asosan salbiy ma’noga ega. Bu prefiks otlarga qo’shilib, xarakter-xususiyat, xossa, holat, shakl-ko’rinish kabi ma’nolarni ifodalovchi sifat hosil qiladi: *badfe’l, badnafs, badbashara, badbo’y, badqovoq, badnom, badjahl* va boshq.

Qo’sh affiksli sifatlar (qo’shma affikslar). Affikslar tuzilish jihatdan sodda va qo’shma bo’lishi mumkin. Ya’ni sifat yasovchi affikslar to’g’ridan-to’g’ri o’zakka qo’shiladi: *bot + iq; qol + oq, jon + li, hosil + dor* kabi.

Ba’zan esa to’g’ridan-to’g’ri o’zakka qo’shila olmaydi. Masalan, ayrim buyruq fe’l formalari avval boshqa yasovchilarni qabul qilib otga yoki boshqa fe’l formasiga aylanib, keyin sifat yasovchilarini qabul qiladi: *sev + im + li, qat +*

qa+loq; quri + m + soq; kir + ish + im+li. Bunday qo'sh affikslar sifat yasovchilarning o'zida ham sodir bo'lishi mumkin: ikkiyuzla + ma+chi.

II bobga xulosa

1. Italian tilida ham sifatlar ot so'z turkumiga yoki fe'l so'z turkumiga oid so'zlarga bir nechta sifat yasovchi suffiks va prefikslar qo'shilishi yordamida yasaladi.

2. Sifat yasovchi suffiksalar qo'shimchalar : *-ato, -aceo, -ale, -iale, -ale, -orio, -iale, -ore, -enza, uale, -aneo, -are, -ario, -evole, -iale, -ico, -ioro, -igno, -ile, -ino, -istico, -ivo, -izio, -oso, -uale, -uto.*

3. Sifat yasovchi prefiksalar qo'shimchalar: *bi-, contra-, contro-, anti-, di-, dis-, emi-, fuori-, inter-, pro-, semi-, super-.*

4. O'zbek tilida boshqa so'z turkumlaridagi kabi sifat turkumida ham affiksasiya usuli bilan so'z yasash keng rivojlangan.

5. Sifat yasovchi affikslar shakl va funksiya jihatidan turli-tuman bo'lib, ot, ravish, fe'l yasovchi affikslarga juda o'xshab ketadi. Ba'zi sifat yasovchi affikslar kelib chiqishi nuqtai nazaridan arab, fors-tojik tillariga mansubdir.

6. O'zbek tilida sifat yasovchi aktiv affikslar: *-li, -lik, (-liq), -siz, -gi, -ki, -qi, -k (-ik, -uk, -ak), -q (-iq, -uq, -oq), -k (-ik, -uk, -ak), -q (-iq, -uq, -oq), -k, -q -dor, -kor, (-gar), -iy, -viy, -ma, -dek, -day.*

7. O'zbek tilida sifat yasovchi passiv affikslar : *-vor (o + vor -loq (a+loq), -qin, -g'in, -gin, -kir, -gir, -qir, -g'ir, -kor, -qoq, -g'oq, -mol (a + mol), -cha -chan, -mand, -vand, -mon, -man, -chiq, -choq, -chak, -on, -yon, -an, -in (-k+in) -gar, -von (a+von), -(a)g'on (digan?), -qa, -s(-ma + s), -omuz, -simon, -on, -ik, -iv, -al, -ial, -boz, -voz, -parast, -parvar, -xon, -xo'r, -shuno//shinos, -soz, ser-, be-, bar-, bad- .*

X U L O S A

Biz ushbu biniruv malakaviy ishimizga xulosa tariqasida quyidagilarni ta'kidlash lozim deb hisoblaymiz:

1. Italian tilida sifat rod va son kategoriyasida o'zgaradi, ot so'z turkumidagi so'zga xususiyat yoki aniqlik tushunchasini ifodalaydi.

2. Aniqllovchi sifatlarga ko'rsatuvchi olmoshlar, egalik olmoshlari, sonni ifodalovchi sifatlar, noaniq sifatlar, so'roqni ifodalovchi sifatlar kiradi.

3. Italian tilida sifat asosan ikkita funksiyaga ega: 1. Sifatning otga to'gridan tog'ri bog'lanishi; ushbu holat aniqllovchi sifat hisoblanadi. Mas: *un film interessante (qiziqarli film), una ragazza bellissimo (juda chiroyli qiz), una persona simpaticissima (juda yoqimtoy kishi), un viaggio indimenticabile (esdan chiqmaydigan sayohat)*. 2. Sifatning otga ot kesim yordamida bog'lanishi; Mas: *questo idea mi sembra interessante (mana bu hujjat menga qiziqarlilik tuyulyapti), quel film e' bellissimo (o'sha kino juda chiroyli)*.

4. O'zbek tilida sifat aniqllovchilar (sifatlovchilar) o'zlarining sifatlanmishlari bilan moslashmaydi.

5. Struktura jihatidan sifatlar sodda va murakkab bo'ladi. 1. Sodda sifatlar: a) tub sifat. Masalan, *katta, kichik, yomon, oq, ko'k, bo'sh, tor* va sh. k, b) yasama sifat. Masalan, *kuzgi, aqlli, to'liq, bemaza, sersuv* kabi. 2. Murakkab sifatlar: a) qo'shma sifat. Masalan, *havorang, soddadil, xushmuomala, kechpishar* va hok. b) juft sifat. Masalan, *bo'lar-bo'lmas, katta-katta, ommaviy-siyosiy, o'nqir-cho'nqir kabi*, v) birikmali va tizma sifat. Masalan, *nafsi buzuk, esi past, to'q jigar rang, o'lardek yengil tabiat (qiz), to'q qora, qizil (duxoba)*.

6. Sifatlar semantik ma'nosi jihatidan asosan 9 turga ajraladi: 1. Xarakter-xususiyat, xossa va qimmat bildiruvchi sifatlar; 2. Holat bildiruvchi sifatlar; 3. Rang-tus bildiruvchi sifatlar. 4. Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar. 5. Hajm-o'lchov- masofa bildiruvchi sifatlar. 6. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar. 7. Hid bildiruvchi sifatlar. 8. Vazn-og'irlik bildiruvchi sifatlar. 9. O'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar.

7. Italian tilida ham sifatlar ot so'z turkumiga yoki fe'l so'z turkumiga oid

so'zlarga bir nechta sifat yasovchi suffiks va prefikslar qo'shilishi yordamida yasaladi.

8. Sifat yasovchi prefiksal qo'shimchalar : *-ato, -aceo, -ale, -iale, -ale, -orio, -iale, -ore, -enza, -uale, -aneo, -are, -ario, -evole, -iale, -ico, -ioro, -igno, -ile, -ino, -istico, -ivo, -izio, -oso, -uale, -uto.*

9. Sifat yasovchi suffiksal qo'shimchalar: *bi-, contra-, contro-, anti-, di-, dis-, semi-, fuori-, inter-, pro-, semi-, super-.*

10. O'zbek tilida boshqa so'z turkumlaridagi kabi sifat turkumida ham affiksasiya usuli bilan so'z yasash keng rivojlangan.

11. Sifat yasovchi affikslar shakl va funksiya jihatidan turli-tuman bo'lib, ot, ravish, fe'l yasovchi affikslarga juda o'xshab ketadi. Ba'zi sifat yasovchi affikslar kelib chiqishi nuqtai nazaridan arab, fors-tojik tillariga mansubdir.

12. O'zbek tilida sifat yasovchi aktiv affikslar: *-li, -lik, (-liq), -siz, -gi, -ki, -qi, -k (-ik, -uk, -ak), -q (-iq, -uq, -oq), -k (-ik, -uk, -ak), -q (-iq, -uq, -oq), -k, -q, -dor, -kor (-gar), -iy, -viy, -ma, -dek, -day.*

13. O'zbek tilida sifat yasovchi passiv affikslar : *-vor (o + vor -loq (a+loq). -qin, -g'in, -gin, -kir, -gir, -qir, -g'ir, -kor, -qoq, -g'oq, -mol (a + mol), -cha – chan, -mand, -vand, -mon, -man, -chiq, -choq, -chak, -on, -yon, -an, -in (-k+in), -gar, -von (a+von), -(a)g'on (digan?), -qa, -s(-ma + s), -omuz, -simon, -on, -ik, -iv, -al, -ial, -boz, -voz, -parast, -parvar, -xon, -xo'r, -shuno//shinos, -soz, ser-, be-, bar-, bad-.*

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nazariy manbalar:

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир –Тошкент :1995.–Б. 55.
2. Abdurahmonov F. Mamajonov S. O'zbek tili adabiyoti – T. : O'zbekiston 2002, -248 b.
3. Abdurahmonov F. Sulaymonov A. Xolyorov X. Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili – T. : O'qituvchi 1979, -207 b.
4. Asqarova M. Shoabdurahmonova Sh. Hojiyev A. Rasulov I. Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili – T. : O'qituvchi 1980, -447 b.
5. Abdurahmonov H, Shodmonov E , Rafiyev A, “O'zbek tili” Toshkent O'qituvchi -1995 yil -200 bet.
6. Ahmedova G. T. Karimjonova V. A. O'zbek tili – T. : Ijod dunyosi nashriyoti uyi 2001, -143 b.
7. Adizov B. Hamroyev A. Mahmudov M. Roziqov O. Ona tili didaktikasi – T. : Yangi asr avlodi 2005, -267 b.
8. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi – T. : O'qituvchi 1996, -246 b.
9. Azlarov E., Usmonov M., Sharipov G'. O'zbek tili–T.: O'qituvchi 1981, -240 b.
10. Ammaniti N., Io non ho paura, Torino, Giulia Einaudi, 2001,- 19 p.
11. Boltayev M “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi” Toshkent “O'qituvchi” 2003.- 94 b.
12. Bushuy T. Safarov Sh. Til qurilishi tahlil metodlari va metodologiyasi – T. : Fan 2007, -43 b.
13. De Mauro t., De Mauro il dizionario della lingua italiana, Milano, Bruno Mondadori editore, 2000, -2998 p.,
14. Ginzburg N., Opere , Milano, Mondadori editore , 1997,-1355 p. ,
15. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish – T. : O'qituvchi 1992, -231 b.
16. Istamova Sh. Safarov Sh. Choriyev T. O'zbek tili – T. : Moliya iqtisod 2008, -256 b.
17. Ismoilov A., Lafasov O'. P., O'zbek tili, – T. : O'zbekiston 2002, -178 b.

18. Jamolxonov H., Hozirgi o'zbek adabiy tili, – T. : Talqin 2005, -271 b.
19. Mahmudov N., Nurmonov A., O'zbek tili nazariy grammatikasi,- T. : O'qituvchi 1995, -229 b.
20. Mahmudova Z., Usmonova G., Rus guruhleri uchun o'quv qo'llanma, – T. : O'qituvchi, 2002, -129 b.
21. Mirkomilov B., O'rolova O., Muhammadiyev P., Ma'naviy tiklanish va o'zlikni anglash, – T. : Muharrir 2010, -203 b.
22. Mirzayev I., Boltayev M., O'zbek tili, – T. : Xalq merosi 2004, -239 b.
23. Nurmonov A., Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari, – T. : Ta'lim 2009, -204 b.
- 24.. Pico Luri di Vassano Modi di dire proverbiale e motti popolari italiani , spiegati e commentale. Roma . Tipografia , 1875
25. Pittano G. , Frase fatta capo ha, Bologna, Zanichelli editore, 2001, -352 p.
26. Rajabov N., O'zbek tilida kelishik kategoriyasi, – T. : O'qituvchi 1995, -62 b.
27. Rahmonov N., Sodiqov Q., O'zbek tili tarixi , – T. : O'zbekiston 2006, -213 b.
28. Raxmonov N., Sodiqov Q., O'zbek tili tarixi, O'zbekiston faylasuflari milliy jamyati tashkiloti. -Toshkent, 2009. -224 b.
- 29.. Рахматулаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати – Т., : Ўқитувчи, 1978. -177 б.
30. Rasulov R., Mirazizov A., O'zbek tili, – T. : Aloqachi .2005, -227 b.
31. Safarov Sh., Pragmalinguistika, – T. : Davlat. 2008, -222 b.
32. Sayfullayeva R., Mingliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Hozirgi o'zbek adabiyoti, Toshkent fan va texnologiya, 2009.- 418 b.
33. To'xtaliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T., O'zbek tilini o'qitish metodikasi, – T. : O'zbekiston. 2006, -212 b.
34. Turniyozov N., Turniyozova K., Funktsional tilshunoslikga kirish, – T. : Fan 2003, -154 b.
35. Tursunov U., O'rinboyev, O'zbek adabiy tili tarixi, – T. : O'qituvchi. 1982, -174 b.

36. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh., Hozirgi o'zbek adabiy tili, – T.: O'zbekiston, 1992, -399 b
37. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Самарқанд: СамДУнашри, 2001.-172 б.
38. O'zbek tilining izohli lug'ati. 7 jild, T: “ Uzbekiston milliy entiklopediyasi” – B. 206-680
39. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент, : Ўқитувчи, 1987. – Б.116-117.
40. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент.: 1987. - 112.б.
41. Хоҗиёев А., То'лиқсиз фе'l, – Т. : Fan 1970, -261 b.
42. Хоҗиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. -Т., 1974.
43. Хоҗиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006,
44. Yo'ldoshev I., Sharipova O'., Tilshunoslik asoslari – Т. : 2007, -190 b.

2. Lug'atlar:

46. Cappellini V., Nuovo dizionario pratico e linguistica, Officine Grafiche de Agostini, 1999, -621 p.,
47. Garzanti, Garzanti I grandi dizionari italiano, Garzanti editore, 1998, -2598 p.
48. Pittano G., Sinonimi e contrari, Zanichelli editore, 1997, -1088 p.,
49. Kavalev V., Il Kavalev, dizionario russo-italiano, italiano-russo, Bologna, 2000, -2176 p. ,
50. Schwamenthal R. M. , Straniero L. , Dizionario dei proverbi italiani, Milano, Biblioteca universal Rizzoli, 1993, -593 p. ,
51. Zingarelli N. , Lo zingarelli, Bologna, Zingarelli editore, 2001, -2176 p. ,

3. Internet saytlari:

52. www.Google.it (Morfologiya)
53. www.Wikepediya (Aggettivi nella lingua italiana)
54. www.ziyo.net (O'zbek tili grammatikasi)